

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI METODIKASI KAFEDRASI

Umirova Shaxnoza Abduolimovnaning

“ 5141600 boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi ” yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Badiiy asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil
fikrlashga o'rgatish (S.Barnoyev ijodi misolida)**

mavzusuda yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. S. Jumayeva

“ Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots. T. Rasulov

“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi-2012 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. I. BOB. SAFAR BARNOYEV – O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING YETUK VAKILI.....	7
I.1 Adib tarjimai holiga chizgilar.....	7
I.2. Ilk ijodi. Dastlabki muvaffaqiyatlar.....	13
II. BOB. SAFAR BARNOYEV IJODINING MAVZU KO‘LAMI, MUNDARIDJASI VA BADIYYATI	22
II.1.Safar Barnoyev asarlarida yurt tinchligi, Vatan istiqboli va barkamol avlod orzu-istaklarining aks etishi.....	22
II.2. Safar Barnoyev ijodida badiiy mahorat.....	39
Xulosalar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston tarixida uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida butunlay yangi davr boshlandi. O‘lkamizda elimizning ko‘p asrlik ezgu orzulari ro‘yobga chiqayotgan bugungi kunda madaniy va ma’rifiy sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalardan biri – “Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e‘tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning – istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘li faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak”¹. Binobarin, “Mustaqil fikr yuritadigan, to‘g‘ri va halol, jasur avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir”².

Bu borada so‘z san’atning go‘zal namunalarini o‘zida jam etgan namunalarini o‘zida jam etgan abadiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti katta imkoniyatlarga ega ekanligini alohida e‘tiborda tutmog‘imiz lozim. Zero, bu adabiyot uzoq asrlar mobaynida avlodu-ajdodlarimiz uchun yosh farzandlariga hayotdagi yaxshilik va yomonlik, baxillik va saxiylik, do‘stlik va dushmanlik kabi qator bir-biriga qarama-qarshi voqea-hodisalarning ro‘y berish saboqlari mog‘iyatini tushuntirishda hamda ular qalbida go‘zallikdan zavqlanish, do‘stlikka sadoqat hislari bilan yondashish tuyg‘ularini uyg‘otishda ma’rifat dasturi vazifasini o‘tab kelmoqda. Ana shunday yuksak g‘oyalar yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib, o‘zining butun ijodiy faoliyatini yosh avlodni insoniylik ruhida tarbiyalash ishiga bag‘ishlagan, badiiiy baquvvat asarlari bilan hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotini boyitgan adiblardan biri safar Barnoyevdir.

Ta’kidlash joizki, adabiyotshunosligimizda shu kungacha o‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotining mukammal ilmiy tarixi yaratilgani yo‘q. Bu tadqiqot amalga oshirilsa, uning jonkuyar ijodkorlariga bag‘ishlangan to‘plamlarining biridan taniqli bolalar yozuvchisi, shoir, tarjimon va xalq og‘zaki ijodining mog‘ir bilimdoni Safar Barnoyev ijodiy faoliyati haqidagi monografik tadqiqot ham o‘zini olgan bo‘lardi. Bu gaplardan adib ijodiyotiga adabiyotshunoslik va tanqidchilik e‘tibor bermagan, u haqda hech nima yozilmagan, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Adibning nashr etilgan kitoblari va davriy matbuotda chop etilayotgan hikoya, qissa, she’r va ballada, dostonlarining deyarli barchasiga ko‘plab taqrizlar bosilib chiqqan.³

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: “O‘zbekiston”. 1998- 330-bet.

² Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. 193-bet.

³ S Irisxo‘jayeva “Bolalar adabiyoti va zamonaviylik”. –T.:Fan, 1981, S.Matjonov “Tiriklik suvi”. – T.: 1986, M.Jumaboyev “Bolalar adabiyoti”.-T.: O‘qituvchi, 1994, M.Jumaboyev O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, R.Barakayev “Jonajonim she’riyat”.-T.: Cho‘lpon. 1998, S.Mirvaliyev. “O‘zbek adiblari”.-T.: Yozuvchi, 2000.

Umuman, o‘zbek bolalar adabiyotining o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab to shu kungacha bo‘lgan tarixiga oid ilmiy ishlarda Safar Barnoyevning ijodiy faoliyatiga ham e‘tibor qaratilib, uning bolar adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissalar alohida qayd etib kelinmoqda.

Lekin hanuzgacha adibning ma‘naviyati, iste‘dodi, ijodiy faoliyati va badiiy mahoratining ba‘zi qirralari, shuningdek, tarjimonlik borasidagi ijodiy salohiyatiga bag‘ishlangan ilmiy ish yozilgani yo‘q.

Tadqiqotning dolzarbligi, eng avvalo, unda ana shu masalalar keng ko‘lamda yoritilganligi bilan belgolanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ilmiy ishimizning asosiy maqsadi Safar Barnoyevning tarjimai holi, ma‘naviyati, iste‘dodi, ijodiy faoliyati va badiiy mahoratining o‘ziga xos qirralari o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi hamda ijodiy merosining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rnini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutildi:

- Safar Barnoyev tarjimai holiga doir chizgilar xususida to‘xtalish;
- ilk ijodi hamda ijodiy o‘shida murabbiylik qilgan ustozlari haqida ma‘lumot berish;
- shoir asarlarining mavzu doirasi va tarbiyaviy ahamiyatini belgilash;
- badiiy mahoratining o‘ziga xos qirralarini yoritish;
- Safar Barnoyev xalq og‘zaki ijodini sevgan va undan ijodiy foydalangan shoirlardan biri ekanligini ko‘rsatish;
- adibning tarjimonlik faoliyati borasidagi mahorati xususida to‘htalishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti. Ishni tayyorlashda Safar Barnoyev ijodiga mansub “Tog‘lardaman” (1970), “Birinchi tabassum” (1972), “Dadamning qo‘llari” (1974), “Sog‘inch” (1975), “Yulduzxon va Bahodirjon” (1977), “Soldat qaytgan kun” (1979), “Oq laylaklar” (1982), “Egizaklar” (1985), “Mukofot” (1983), “Tinchlikni ulug‘laylik” (1986), “Dadam haqida qo‘shiq” (1989), “Karimjon-karmon” (1988), “Beliye aisti” (1990), “Kichkina Qori Ishkanba” (1995), “Kichkina Xo‘ja Nasriddin” (1998) kabi qator to‘plamlariga, shuningdek, adibning davriy nashrlarda, xususan “tong yulduzi”, “Ma‘rifat”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetalari hamda “G‘uncha”, “Gulxan” kabi jurnallarda chop etilgan asarlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bolalargaatab asarlar yaratishni o‘zining qismati deb bilgan Safar Barnoyev ijodi haqida adabiyotshunoslik ilmida u yoki bu darajadagi ilmiy taqrizlar, maqolalar yozilgan. Biroq shunga qaramay, adibning hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotiga tutgan o‘rni, asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari maxsus o‘rganilmagan. Biz ishimizda tadqiqotning hikoyalari, qissa, she‘r va tarjima asarlari asosida ijodining g‘oyaviy-badiiy fazilatlarini, uslubi, poetik mahorat yo‘llarini imkon qadar yoritib, ilmiy xulosalar chiqardik.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishimiz hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotii taraqqiyotini yoritishda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning badiiy adabiyotga nisbatan muhabbatini uyg‘otishda, o‘quvchi-yoshlarning she‘riyat zamiridagi ma‘nolarni anglab yetishda muayyan ahamiyat kasb etishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan yosh avlodga milliy, madaniy va ma‘naviy tarbiya berish samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ishning ilmiy-uslubiy asosini o‘zbek bolalar adabiyotini tadqiq etgan olimlardan O.Sharofiddinov, P.SHermammedov, S.Irisxo‘jayeva, S.Matjonov, M.Jumaboyev, B.Imomov, R.Barakayevlarning ilmiy xulosalari tashkil etadi.

Himoyaga olib chiquvchi bosh g‘oya. Bolalar uchun yozilgan kitoblarga bo‘lgan asosiy talablardan biri ularning tarbiyaviy ahamiyati bilan belgilanadi va izohlanadi. Agar tarbiya jarayoni badiiy asarlar va she‘riy tahlillar asosida olib borilsa, yosh avlodga milliy va ma‘naviy tarbiya berish samaradorligi yanada oshadi.

Tadqiqotning tuzilishi kirish, ikki bob, xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘xatidan iborat.

I. BOB. SAFAR BARNOYEV – O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING YETUK VAKILI

I.1. Adib tarjimai holiga chizgilar

Adabiyotning ajralmas bir bo‘lagi hisoblangan bolalar adabiyoti o‘z oldiga bolalarning yoshi, saviyasiga qarab katta ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni qo‘yadi. Bolalar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning nafaqat yosh xususiyati va saviyasiga mos, shuningdek yosh kitobxonlar qalbida uy-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur. Zero, mavzulari tushunarli, sodda, qiziqarli, sarguzatshlarga boy, estetik maroq bag‘ishlovchi asarlargina quvnoq bolajonlar qalbi va ongidan chuqur joy oladi. Bolalar shoiri va adiblari o‘zlarida ana shunday buyuk mahoratni va salohiyatni mujassamlashtirgan holda nozik did va ulkan qobiliyat bilan yozilgan asarlari ila yosh avlod qalbiga kirib boradilar. O‘z asarlari bilan bolalar ongi, xarakteri va irodasini o‘stirib, chiniqtirishda, ularni davrimiz ruhida mehnatsevar kishilar darajasiga tarbiyalashda xalqqa, mustaqil davlatimizga katta yordam berishi kerak. Zero, bizning ozod va obod Vatanimiz kelajagi har tomonlama yetuk, o‘qimishli, bilimli yoshlar qo‘lidadir.

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, yerkim obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxoniga kuchli ta’sir etadi va ularning dustiga, sevimli hamroxiga aylanib qoladi.

Ana shunday buyuk asarlar muallifi, yuksak mahorat va istdod sohibi, o‘zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Erkin Malikovdir. Adibning boy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, asarlari mazmunida o‘zbek bolasining o‘y fikrlari, orzu-umidlari, intilishlari, shuningdek sodda qiyofasi, fe’l-atvori, kulgusi-yu yig‘isi, qaqqajon o‘yinlari yarq-etib ko‘zga tashlanadi.

Bolalar va o‘smirlar adibi Safar Barnoyevning tarjimai xoli haqida so‘z yuritar ekanmiz, uning hayotining dastlabki yillari, o‘ta mashaqqatli, ayriliqlar azobida o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Hattoki, adib o‘z tug‘ilgan yilini va sanasini ham aniq bayon eta olmagan. Bu haqda u o‘zining tarjimai holida shunday yozadi: “Odatda tarjimai hol yozgan yoki biror rasmiy hujjat to‘ldirgan odam, “Men falon yili, falon oyning, falon kunida tug‘ilganman”, deb aniq yozadi. Afsuski, men bunday qilolmayman. Sababi: to men maktabni bitirguncha rahmatli onam Ro‘zigul Sobir qizining qo‘lida hech qanday hujjat bo‘lmagan. Tug‘ilgan qishlog‘im Buxoro qishlog‘idagi Dilkusho degan joyida qishloq raisi bo‘lib ishlagan odamdan hujjat so‘ralganda, u hech ikkilanmay “bolayiz mening o‘g‘lim bilan barovar”, deb guvoohnoma to‘ldirib bergan. Unda

mening tug‘ilgan kunim 1938 yil 6-may deb ko‘rsatilgan. Mana shu hisob bilan yashab kelaman. Birov surishtirgani ham yo‘q...¹

Adibning onasi Ro‘zigul aya esa Safarning yoshligida “Sen tut pishig‘ida , kimningdir to‘yi kuni tug‘ilgansan”, deb ta‘kidlagan. Rasmiy ravishda esa adib yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan sanada tavalldu topganligi qayd etiladi.

Adib olti oyga to‘lgan vaqtda otasi urushga ketadi. O‘zining tarjimai holidan bayon etilishicha, otasi , ketar chog‘ida “mening kafanim bo‘yninga o‘ralangan, qaytib senlarni ko‘rolmayman”², deya Safarni bag‘riga bosib yig‘lagan. Shuning bilan adibning otasi o‘g‘li bilan bir umrga xayrlashgan.

Safar Barnoyev yoshligidanoq she‘r yozishga va mutoala qilishga ishtiyoqi baland bo‘lgan. U lotin alifbosi ist‘mollan chiqib, kiril xarflariga o‘tilgan ayni vaqtlarda boshlang‘ich sinfga boradi. Ammo o‘sha vaqtda badiiy adabiyotlarning ko‘pchiligi lotin alifbosida bo‘lgan. Shu sababli bo‘lajak shoir uni osongina o‘zlashtirib oladi.

Safar Barnoyev shoirlarning she‘rxonlik kechalarida, hajviyachilarning askiya-bazmlarida o‘smirlik davridayoq faol ishtirok etib borardi. Bazmlarda ko‘zga tashlanib, qolgan Safar kechalari tinmay badiiy va she‘riy kitoblarni mutoala qilardi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” singari badiiy asarlar, “Alpomish”, “Kuntug‘mish” va “Go‘ro‘g‘li” sikligi kirgan xalq dostonlarini o‘qib chiqqanligi fikrimizga dalil bo‘ladi.

Shu tariqa, oyatlar ohangi-yu, dostonlarning sehrli og‘ushida ulg‘aygan Safar Barnoyev bugungi kunga kelib bolajonlarning sevimli shoiri sifatida ega tanildi. Boshqacha qilib aytganda, uning bu darajada mashhurlik shohsupasiga ko‘tarilishida bolalik hayotidagi o‘ziga xos abadiy muhitning shakllanishi asosiy omil bo‘lgan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi og‘ir yillarda barcha tengqurlari qatori qiyinchiliklarni va zahmatlarini o‘z boshdan kechiradi. Oilada yakka o‘g‘il bola Safar boshqoq terish, burgan o‘rish, shuvoq topish, qo‘y va mol boqish, o‘tin bog‘lash kabi og‘ir ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladi. Pul topish ilinjida ovulidagi ko‘pchilik xonalarda mardikorlik qiladi.

Hayotning ana shunday mashaqqatli sinovlari, achchiq-achchiq savdolari shoirni juda qiynab qo‘yadi. Azob-uqubatlar iskanjasida Safar binoyidek adib bo‘lib qoladi. Boshdan kechirgan qiyinchiliklariga qaramay, adib abadiy kitoblarni yig‘ish, mutoala qilish, adiblar va shoirlar ijodini o‘rganish bilan birga, o‘zi ham ijod olamiga sho‘ng‘ib ketadi.

Safar Barnoyev dastlab she‘r yozish bilan shug‘ullangan. Keyinchalik, bolalar hayotining quvonchli-yu, qayg‘uli jabhalarida qiziq-qiziq hikoyalari yordamida yoritib berishga kirishgan.

¹ Sobir.Mirvaliyev. O‘zbek adiblari –Toshkent: “Fan”, 1993.193-bet.

² S.Mirvaliyev O‘zbek adiblari. – Toshkent: “Yozuvchi”, 2000. 174-bet.

Safar Barnoyev Buxoroi Sharifda o‘ninchi sinfni 1959 yili tugatgan. Tirikchilik ilinjida biroz muddat qurilishda ishlagan. Ayni shu davrda adibning dastlabki she‘rlari Respublika gazetalarida nashr qilina boshlanadi. Adibning hayoti davomidagi eng unutilmas damlardan biri birinchi she‘ri “Lager qo‘ynida” nomi bilan “Tong yulduzi ” gazetasida 1959 yilda e‘lon qilinishi bo‘ldi. Shundan so‘ng shoir mashhur olimlar-u, shoir-ulamolar davrasida bo‘lishga imkon yaralgandek bo‘ladi.

1960 yil Safar Barnoyev xarbiy xizmatga boradi. Xizmatdan qaytgach, Toshkent Davlat dorilfununining jurnalistika bo‘limida o‘qishga qabul qilinadi. O‘qish davomida ham ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan Cafar ustozlarining iqtidorli va iste‘dodli shogirdlari qatoridan joy olgan. Gazetada chiqqan dastlabki she‘ri shoir hayotining faoliyatini yuksak cho‘qqiga ko‘taradi. Bu haqida adib shunday yozadi⁶ “Xuddi shu gazet o‘qishimni tugatmas, meni ishga taklif etadi. Bolalar shoiri, yozuvchisi bo‘lishimni xuddi shu gazetdan ko‘raman...”.¹

1966 yili dorilfununni bitirib, “tong yulduzi” gazetasida mas‘ul kotib vazifasida ishlaydi. Safar Barnoyev ish bilan bo‘lib, o‘z ijodini to‘xtatib qo‘ymadi. Bolajonlar uchun qiziq-qiziq she‘rlar, hikoyalar va qissalar yozishdan lazzatlanardi. Mashqlarining gazeta va jurnallarga bosib chiqilishi uni yanada ilhomlantiradi.

So‘ng adib “Yosh gvardiya” (hozirgi “Kamalak”) nashriyotida, Respublika Yozuvchilari uyushmasida, so‘ng xalq ta‘limi vazirligida mas‘ul vazifalarda ishlaydi. Bolalar adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan adib umrining so‘ngiga kunlariga qadar sevimli jurnali “Gulxan”ning bosh muxarriri bo‘lib ishlaydi. Sevimli adibimiz S.Barnoyev 2001 yilning may oyida vafot etdi.

Safar Barnoyevning ijodiy kamoloti o‘tgan asrning 70-yillarida to‘g‘ri keladi. Uning birinchi she‘riy to‘plami 1970 yilda “Tog‘lardaman” nomi bilan chop etiladi. Bu davrda shoirning ilk she‘riy to‘plami haqidagi taqrizlar respublika gazetalarida e‘lon qilina boshlandi. Tez orada ilk kitob o‘zining munosib muxlislarini topib, qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Adib yozuvchilar uyushmasida ishlab yurgan kezlarda ijodiy faoliyati gullab yashnaydi. Uning yangidan-yangi mashqlari muntazam ravishda matbuotda e‘lon qilinib turildi. Gazeta va jurnallarda uyushtiriladigan barcha tadbirlarga faol ishtirok etadi va bu xizmatlari natijasida o‘zbek ijodkorlarining qo‘llab-quvvatlashiga sazovor bo‘ladi. Ana shunday obro‘-e‘tibor, olqish-u-maqtovlar, adibga ruxan madad berib, ijod olamiga dadil kirib borishiga turtki bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki inson odamlar to‘dasidan ajralmagan holda ma‘lum muhit ta‘sirida ulg‘ayar ekan, uning kamolotga erishishi uchun zarur bo‘lgan omillar mavjud. Bu - faoliyat jarayonida to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya berishdir. Ushbu omil insonning kelajakda o‘z o‘rnini topishini belgilaydi.

¹ Z.S.Mirvaliyev O‘zbek adiblari. Toshkent. “Yozuvchi” nashriyoti, 2000 yil 174-bet.

Safar Barnoyev ham ne-ne mashaqqatlar bilan buyuk adiblik shohsupasiga ko'tarilgani – bizga uning tarjimai holidan ma'lum bo'ldi. Zero, hech qanday kasbda qiyinchiliksiz, osongiga erishib bo'lmaydi, bo'lsa ham bunday kasb qisqa umrli bo'ladi. Shuning uchun bir sohani egallash uchun uning sir-sinoatlarini puxta o'rganish va unga yetaklovchi yo'lda uchraydigan to'siqlarni mardlarcha yengib o'ta olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Umuman olganda, adib butun umrining betakror va beg'ubor davrini o'z boshidan kechayotgan bolajonlar adabiyotning merosini yanada boyitishga bag'ishlaydi. Zero, u yaratgan noyob durdonalar allaqachon yosh kitobxonlarning qalbidan chuqur joy oldi, mehr-muhabbatini qozondi.

Shuningdek, Safar Barnoyev bolalar hayotining qiziq-qiziq jihatlarini bayon etuvchi ajoyib hikoya va qissalar muallifi hisoblanadi.

Xalqimizda bir ajoyib naql bor: Mehnat qilsang, rohat ko'rasan. Darhaqiqat, inson mehnati, astoyidil bajargan ish faoliyati bir kunmas bir kun o'z natijasini ko'rsatadi. Mehnat-mehnatni sevgan insonlarni ulug'laydi. Safar Barnoyev ham qilgan mashqqatli ammo, sharafli mehganatlari, buyuk ishlarining lazzatli rohatlarini ko'rdilar. Hayot yo'llariga to'g'anoq bo'lgan to'siqlarni birin-ketin yengib o'tib, adabiyotning eng nozik qirrasini bo'lmish bolalar adabiyotining yuksak cho'qqilarini zab etishga muvaffaq bo'ldilar. Darvoqe, adib 80-yillardan boshlab hikoya va qissalar yozishga kirishadi. Odatda, adib turli hududlarga ijodiy safarga chiqib, joylardagi bolalarning hayot tarzi, yashashi, havaslari, qiziqishlari, intilishlari, orzu-umidlari, o'y-xayollari bilan yaqindan tanishib chiqadi va shunga ko'ra ularga ma'qul va manzur mavzudagi hikoya va qissalarni yozishga kirishadi. Safar Barnovning tarjimai holidan bayon etilgan quyidagi fikrlar fikrimizning yorqin dalilidir: “1987 yil Afg'onistonga bordim. Borishdan bosh niyat, 20 yillarda bizning ota-bobolarimiz inqilobni qay tarzda qabul qilganini ko'rish, his etish edi. Savr inqilobi, oktabr inqilobining ikkalasiga ham jallod bosqinchilari bosh bo'lganini avg'on tuprog'ida ko'rib qaytdim...”¹

Adibning shu safaridan so'ng “Afg'on hikoyalari” turkumi dunyoga keldi. “Shayton ergashgan bola” ham shu safar mevasi hisoblanadi.

Qisqasi, adib yaratgan asarlar bir qator adabiyotshunos olimlar tomonidan xolisona baholanib, hayotiy mazmunga egaligi yuzasidan tadbiiq etsa arzigulik ekanligi alohida qayd etildi. Shoir haqida bir talay kitoblar nashr etilib, hayotiy faoliyati haqida, ijodi xususida bir qator maqolalar yoritildi.

Safar Barnoyevning hayotiy chizgilari xususida televideniya va radioda ko'rsatuv va eshittirishlar berib boriladi. Deyarli barcha o'quv qo'llanmalarga, darsliklarga adibning

¹ S.Mirvaliyev O'zbek adiblari.- Toshkent: “Yozuvchi”, 2000.175-bet.

asarlaridan namunalar kiritilgan. Eng muhimi, bunday asarlar o'zining munosib muxlislarini topib ulgurdi.

O'tgan asrning 50- yillarida o'zbek bolalar adabiyotiga katta umidlar bilan kirib kelgan adib, mohir publitsist Safar Barnoyev insonga berilgan bu qisqa umrni qazosidan keyin ham yashab qolishga imkon yaratish uchun berilgan fursat deb bildi. Ana shu fursatni esa behuda o'tkazmaslikka siz-u bizni ham chaqirdi.

I.2. Ilk ijodi. Dastlabki muvaffaqiyatlar.

Badiiy adabiyotning yuksak darajada rivojlanishiga munosib hissasini qo'shgan har qanday ijodkorning tarjimai holiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning dastlabki ijodiy g'unchalarining kurtaklari bolalik va yoshlikning, maktab davrining beg'ubor onlaridan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Bu albatta, tabiiy hol. Inson qachonki o'zining qalbida zarracha bo'lsa ham g'ubor ko'rsa yoki sezsa, undan ba'zan ijobiy, ba'zida esa salbiy jihatdan ilhomlanadi. Ko'ngil kechinmalarini, tuyg'ularini umumlashtirib, obrazli shaklga qog'ozga tushurishga harakat qiladi. Bu harakatlar ijodkorning ijod olamiga kirib borishiga boshlang'ich turtki bo'ladi. Keyinchalik u bir qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida takomillashtiriladi.

Xuddi shunday boshlang'ich ijod namunalari ijtmoy ongni shakllantirish va rivojlanishi bilan umumlashib boradi va yaxlit bir butun asar xoliga keladi.

Boshlang'ich ijod namunalari sodda, tushunarli, tor ma'noda bo'ladi. Ammo ana shunday o'ziga xos xususiyatlar bolani mukammal ijod olamiga yetaklaydi va uning o'z-o'zini tarbiyalashiga zamin yaratib beradi. Shu tariqa u o'zini butkul ijodga bag'ishlagandek bo'lib qoladi. Ana shu davrda bola yoshiga mos va o'ziga shoir-u, adiblarning ijod namunalaridan bahra ola boshlaydi, hamda ulardan yanada ilhomlanib, ajoyib asarlar yaratib qo'yadi.

Bizga ma'lumki, bolalar barcha narsa va hodisalarga qiziquvchan bo'ladi. Ana shunday qiziqishlarni, havaslarni ma'lum ma'noda qondirish yuksak malakali, mahoratli bolalar adabiyoti vakillariga yuklatiladi.

Bolalar adibi va shoiri sodda, ravon, qiziqarli va mazmunli asar yaratib berishi maqsadga muvofiq.

Taniqli adib, bolalar adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri yozuvchi Erkin Malikov ham o'zida ana shunday xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Adib o'y o'ylashni, xayol surishni yaxshi ko'radigan, o'zlarining chuqur xayollari bilan yashaydigan bolalarni chin yurakdan sevadi va ularni qattiq hurmat qiladi. Shuning uchun ham umrining yorqin lahzalarini bolalar adabiyotining xazinasini boyitishga sarfladi.

Ma'lumki, biz quvnoq bolajonlarning qalbida o'zgacha dunyo va sehirli olam borligini hamisha ham anglab, tushunavermaymiz. Ular doimo jajjigina qalblarida ezgu, buyuk orzular, so'ngsiz umidlar bilan yashaydilar, turli-tuman olam sir-sinoatlari bilan tanishishni, ulardan xabardor bo'lishni istaydilar. Safar Barnoyev o'zbek bolalar adabiyotida nasrda ijod qilib, bolajonlar qalbidan chuqur joy olgan asarlari bilan mashhurdir. Uning asarlarida bolalarning a'lo o'qishga intilishlari, odob-ahloqqa boshqalarga ibrat bo'lishlari, ota-onaga muhabbati, vatanparvarligi ochib beriladi. Bolalar doimo xayollar, sarguzashtlar olamida yashashni va shu olam orqali katta hayotning bosh yo'liga chiqib olishni orzu qilishadi. Shu sababli tabiiyki kichkintoylar o'zlarining chuqur xayollarini boyita oladigan, ma'naviy maroq beradigan asarlarni o'qishni sevadilar. Ana shu xildagi asarlar orqali ular olamning olamning "mo'jiza"lari bilan oshno bo'ladilar. O'z hayotlarini ham o'qigan asarlaridagi "mo'jiza"lari bilan oshno bo'ladilar. O'z hayotlarini ham o'qigan asarlaridagi "mo'jiza"larga bog'lab, boyitib borishga urinadilar. Ta'kidlash joizki, Safar Barnoyev bolalarning nozik qalbidan chuqur joy olgan, ularning hayot dunyosiga mos asarlar muallifi hisoblanadi. Safar Barnoyev ilk ijod namunalarini maktabda tahsil olayotgan kezlarda boshladi. Bo'lajak adib urush yillarida ko'p aziyatlar chekib, totgan azob-uqubatlarini yuksak mahorat va zo'r havsala bilan qog'ozga to'kib sola boshladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, betakror bolalaik onlarida tinglagan ertak, hikoya, she'r va dostonlardan ilhomlangani, shuning barobarida ko'plab mehribon, sahiy ustozlari

ko‘magini, dono maslahatlarini olgani qaysidir ma’noda uni adib bo‘lib yetishuvida turtki bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

O‘rta maktabni a’lo bahoga tugatgan Safar Barnoyevning ilk mashqlari gazeta va jurnallarda e’lon qilindi. Bir qator adabiyotshunoslar nazariga tushgach, tom ma’noda ularning ko‘magi bilan birinchi she’riy to‘plami nashr etildi va kitobxonlar tomonidan munosib kutib olindi.

Safar Barnoyevning 60-yillardagi dastlabki mashqlarini kuzatgan kishi adib ba’zan tayyor, kulgili voqealar asosida hikoyalar bitganligining ham guvohi bo‘ladi. Shunga ko‘ra, adibning ilk ijodiga mansub barcha she’rlarini birdek yetuk asarlar deb bo‘lmaydi. U ham boshqa ijodkorlar singari o‘z boshidan ijodiy izlanish davrini kechirdi, o‘z ustida jiddiy ishladi. Natijada “Muhabbatsiz muallim bo‘lmas” she’ri singari badiiy puxta, pishiq asarlari maydonga kela boshladi:

Vazirdir u, oddiy muallim,
Dunyo bersang zavqini i tuymas.
Yuragida bir gul bor —
Ta’lim,
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Bolalarning tovushi bilan
Uyg‘onadi, uyquni suymas.
Maktabiga bog‘liq jonu tan,
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Daftar, kitob qo‘lida mudom,
Uyida ham yonidan qo‘ymas.
Umri darsdan iborat, tamom,
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Berilmagan zebu ziynatga,
Bolasiz uy, u uchun uymas,
Ishi yo‘qdir, arzon, qimmatga,
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Shogirdim der, intilmas shonga,
Shogird so‘zin aytmoqdan tuymas.
Borar bo‘lsa hatto mehmonga
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Faqat yurar sodda, kamtarin,

Donolikka so‘zini yo‘ymas,
Olib yurmas hasrat daftarin
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Kimki unga boqsa bepisand,
Kulib qo‘yar, achinmas, kuymas,
Fikri yodi o‘qish bilan band,
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Shunday o‘tar oyu yillari
Charchasa ham qovog‘in uyumas
Ko‘karsa bas ekkan gullari
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.
Nohaqlikka duch kelsa ammo
Rostin aytar,
Tilini tiymas
Sen ta’limdan topgin der davvo,
Muhabbatsiz muallim bo‘lmas.

She’r haqida so‘zlab berish, aslida, nochorning ishi. Ezgu qalbdan yaralgan she’rni o‘qiganda, undagi voqea yoki mantiqni shoir ko‘ngiliga monand tuyg‘ular ila his qilganga nima yetsin! Aslida she’r shuning uchun yoziladi.

Bolalar dunyosi ham xuddi shunday. She’r haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar, bahslar, jimjimador fikrlar-u, balandparvoz avozlar ular uchun mutlaqo ahamiyatsiz. Dunyoni tanib kelayotgan yosh qalblar atrofidagi hamma narsa, hodisa, munosabatlarga qalb ko‘zlarini katta-katta ochib qaragani, talpingani kabi hayotning jonli parchalariga aylangan she’rga ham do‘st tutunadi. Bolalar she’riyatning o‘ziga xosligi ham bolalarning mana shu xislatlarlaridan kelib chiqadi.

Safar Barnoyevning yuqoridagi she’rining bosh mavzusi muallimning hayotidan iborat.

Biz kelajakka intilib yashaymiz. Vatan, ona, qadrdon shahar yoki qishloq, saxovatli tabiat, ko‘ngli daryo odamlarga mehr-muhabbatimiz rishtalarini bog‘lab kechirgan kunlarimizni sog‘inamiz. Shu sog‘inchning ildizlari qalbimizda qanchalar chuqur singan bo‘lsa, demak, taqdir bizni siylabdi.

Safar Barnoyev she’rlarida ham oldin Vatanning muqaddas ostonasi bo‘lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o‘ychan termulgan, undagi har bir mavjudodni ixlos bilan ardoqlagan, sodda-yu to‘pori, qismati mehnat va ona mehnat bo‘lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug‘roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko‘zga tashlanadi.

1970 yilda bosilib chiqqan ilk to‘plami “Tog‘damen” chinakam insoniy fazilatlar, bolalikning oltin davriga mos odatlar va faoliyatlar, jumladan, o‘yin, ta‘lim va mehnat faoliyatining uzviyligi hamda uyg‘unlashuvini o‘zida mujassamlashtirgan mavzular, o‘simlik va hayvonot olamining ajoyibotlari, tabiat mo‘jizalari haqidagi eng sara she‘rlaridan tuzilgan asarlar jumlasidandir. Bu asarlarning mazmun-mohiyatida bolalarni ezgulik, mehr-muhabbat, tinchlik, do‘stlik, vatanparvarlik, vafodorlik, mehnatkashlik, ahillik va birdamlik ruhi balqib turadi. Uning asarlari kichkintoylarni yaxshilik qilishga o‘rgatish orqali butun olam ajoyibotlariga yetaklaydi, bir-biridan g‘aroyib sarguzashtlarga boy sayohatlarga chorlaydi.

Safar Barnoyevning ilk to‘plamidan o‘rig olgan she‘rlar bolalarning o‘y xayollarini o‘stiradi, bilim olish, o‘vish, izlanishga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi, hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Adib ilk she‘riy to‘plamini nashr ettirgandan so‘ng ijodiy ishlari jadal rivojlana boshlaydi. Bir-biridan ajoyib she‘rlar, hikoyalar va qissalar yozib yangi-yangi to‘plamlar nashrdan chiqara boshlaydi. Albatta, bu sa‘iy-harakatlarda jonukyar uztozlarning beminnat xizmati katta bo‘ldi. Aniqsa, bolalik yillarida tinglagan, o‘qigan xalq og‘zaki ijodi va jahon adabiyoti durdonalari uning badiiy tafakkurining shakllanishi, hamda shoirlik salohiyatining takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adibning tinimsiz izlanishlari, oylab, yillab ustida ishlashi, mashaqqatli mehnatlari samarasiz qolmadi. Ilk to‘plami yaratilgandan so‘ng, shoirni ijodiy zafarlar qucha boshladi. Shundan keyin ijodkorning “Birinchi tabassum” (1972), “Dadamning qo‘llari” (1974), “Sog‘inch” (1975), “Yulduzxon va Baxorjon” (1977), “Soldat qaytgankun” (1979), “Oq laylaklar” (1982), “Egizaklar” (1985), “Mukofot” (1983), “Tinchlikni ulug‘laymiz” (1986), “Dadam haqida qo‘shiq”(1989), “Karimjon-karmon”(1988). “Beliye aisti” (1990) kabi o‘nlab she‘riy, nasriy asarlari chop etildi. Bolalarning ko‘plari rus, ukrain, belorus, latish, moldovan, polyax, chex, arman, ozor, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va qoraqalpoq tillariga ham ag‘darildi. Mazkur to‘plamlarga kirgan asarlarning bosh mavzui esa urush qoldirgan jarohatlarni ko‘rsatish orqali hozirgi yoshlarni istiqloq ruhida tarbiyalashdan iborat. Uning “Ota o‘g‘li”, “Qirq yettinchi yil” hikoyalar turkumi xuddi shu maqsad, shu g‘oyani ilgari suradi.

Bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olib, o‘z ijod dunyosiga bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan adib bolalar adabiyotida yangicha talqinlagi turli mavzular ustida ishladi. Xususan, o‘zbek bolalar adabiyotida dolzarb mavzu hisoblangan, eng yuksak pog‘onani egallagan Vatan mavzui fikrimizning dalilidir. Ulug‘lar aytganidek Vatan tuyg‘usi o‘z ostonangdan boshlanadi. Binobarin o‘z makonidan chetga chiqqanda sog‘inch tuyg‘usi vujudga keladi. Kindik qoni tomgan zamin, har bir qarich yer, har bir inson uchun aziz va mo‘tabardir. Shuning uchun ham tug‘ilib o‘sgan yer Ona Vatan tushunchasini adib asarlaridagi talqinini tahlil

etishdan oldin uning quyidagi soʻzlariga eʼtibor qaratamiz: “Biz kechagi kungacha oʻzimizni inqilob bolalari deb aldab, aldanib keldik. Aldanganimiz hammaga ayon. Shukronalar boʻlsin, koʻz oʻngimizda siz, mustaqillik bolalari boʻlib dunyoga keldingiz. Takror aytamiz. Mustaqillik bolalari sizga koʻz tegmasin”¹.

Bu soʻzlari bilan adib bugungi kun bolalarini vatanni sevishga, uni asrashga, himoya qilishga, mustaqillikni qadriga yetishga va uni boqiyiligini saqlashga daʼvat etadi.

“Yurti, elining qadriga yetmagan kimsagina, oʻz bogʻini, el bogʻini poyxon qiladi. Oʻzgalar ostonasiga bosh qoʻyib, ota-onasi dasturxoniga oyoq uzatadi. Osoyishtalik, tinchlikni buzadi. Chunki unaqalarning miyasini yovvoyi qurtlar zaharlagan”².

Bolalarni ulgʻayish jarayonida yurtning qadriga yetishga oʻrgatish mahalladan, oiladan boshlanadi. Avvalo, ota-ona bunday ezgu jihtlarni bolada mujassam boʻlishi uchun masʼul. Uni osoyishtalik va tinchlikni sevishga buzuq niyatlardan, yomon yoʻllardan yiroqda yurishga oʻrgatish kerak. Zero, Vatan kelajagi har tomonlama yetuk, ijobiy erkin fikrlovchi, mustaqil harakat qiluvchi, ezgu ishlarni sidqidildan yosh avlod qoʻliga topshirilgan. Uni qanday davom ettirish, kelajakni qanday qurish yoshlarga bogʻliq.

Bu borada adibning quyidagi soʻzlari va misralari yodga tushadi: “Oʻzbekistonimiz erkalanib, erkalanib erlar yurtiga aylanmoqda. Esda tuting, mana-man degan erlar, donishmandlar shu zaminda tugʻilgan. Ilmi bilan dunyoni uygʻotgan.

Savoblar kimgadir,

Gunohlar kimga,

Bari, bora-bora

Boʻlar ajrim

Bulbul in qoʻymagay tikanli simga,

Yoʻlak chin bezar

Faqat ajiriq.

Biz Vatan koʻrdik,

Uning taʼrifin .

Hali aytar, Alpomish

Zoti qarigan.

Goʻdaklar kaftida oʻnmoqda gullar...”³

Adib ushbu misralar orqali ajdodlarimiz orzu qilgan, yetmish yillik azob-uqubatlar changalida yotib ham ozodlik uchun kurashgan, unga erishish uchun qon yigʻlab duolar qilgan,

¹ S.Barnoyev “Dovonlardan oshayotgan yurt”.// “Gulxan”, 2000. №7-8, 2-bet.

² S.Barnoyev “Dovonlardan oshayotgan yurt”. // “Gulxan”, 2000. №7-8 3-bet.

³ S.Barnoyev “Davonlardan oshayotgan yurt”. // “Gulxan”, 2000. №7-8, 3-bet.

muborak kunning abadiylikini saqlashga boalarni chorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Yurtimizda yashab o‘tgan minglab ziyoli olimlar, donishmandlar ekib ketgan urug‘lari, o‘tkazgan ko‘chatlari bugungi kunga kelib nish urib gulladi. Ularning lazzatli mevasini totib ko‘rish bugunning bolalariga nasib etgan ekan, demak, ular o‘zlarining tinchliklari, sog‘liqlari, ososiyshkalaiklari uchun o‘zlari kurashishlari lozim.

Bu fikrlarni adib quyidagi misralar orqali bolalarga yetkazadi:

“Biz tarix yaratdik
Kelgan har kimsa,
Duoyi jonimizqilib ketmoqda,
Aytsam,
O‘zbekiston biling,
Al-qissa,
Bugun bitmoqdadir,
Bugun bitmoqda.
Oshar dovonlari
Yuz bo‘lar keyin,
Keyin
Ertaklarga aylanar bu yurt”¹.

Darhaqiqat, O‘zbekiston deya atalmish mustaqil bo‘ston ne-ne mashaqqatlar, azob-uqubatlar evaziga bunyod bo‘lmoqda. Uning tuprog‘i muqaddas. Chunki, uning bag‘rida minglab buyuk ajdodlarimiz yotadi. Ularning ruhi bizni va yurtimizni hamisha qo‘llab-quvvatlaydi. Biz bolalar ajdodlarga sadoqatli bo‘lishimiz kerak.

“Qo‘ni-qo‘shni
O‘zbekiston afsona yurt,
Biz uchun hayrat
Go‘zallik,
Kashfiyotlar yurti.

Bu so‘zni Amir Temur avlodlari, Alpomish zurriyodlari ko‘krak kerib aytadi”².

Biz ham hozir va kelajakda bu kabi ajdodlarimizning muqaddas shiorlarini baralla aytamiz va unga qat‘iy amal qilishimiz lozim. Bolalarga atab ijod etish bu sohada muvaffaqiyat

¹ S.Barnoyev. “Dovonlardan oshayotgan nur”. // “Gulxan”, 2000. № 7-8, 3-bet.

² S.Barnoyev “D.O.N.” // “Gulxan”, 2000. № 7-8. 3-bet

qozonishi uchun qobiliyat va istakning o'zigina yetmaydi. Ulug' adabiyotshunos Belinskiy ta'rifi bilan aytganda bolalar adibi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar adibi mohir pedagogday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik qalb egasi, go'dak tabiati va psixologiyasini bilish, mehribon va bolajon, kamtarin, samimiy, bolalarga soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmunni taqazo etadi, albatta. Biz Safar Barnoyev ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz.

Iste'dodli bolalar adibi Safar Barnoyev o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga o'zining mazmunli asarlari, qiziqarli she'rlari va hikoyalari bilan munosib hissasini qo'sha oldi. Keyinchalik adib yaratgan ajoyib hikoya va qissalari bolajonlarning qalb qo'ridan, adabiyot xazinasining noyob qatlamidan mustahkam o'rin oldi.

II. BOB. SAFAR BARNOYEV IJODINING MAVZU KO'LAMI, G'OYA VA MUNDARIDJASI VA BADIYYATI

II.1.Safar Barnoyev asarlarida yurt tinchligi, Vatan istiqboli va barkamol avlod orzu-istaklarining aks etishi

Safar Barnoyev ijodiyotida bolalar adabiyoti uchun muhim bo'lgan aniq, sodda, ravon, chuqur mazmundorlik muhim o'rin egallaydi. Adib ijodiga xos bo'lgan bu kabi xususiyatlar uning asarlarining mavqeyini kitobxonlar orasida oshirishiga yordam beradi.

Safar Barnoyev asarlarining mavzu doirasi keng va rang-barang bo'lib, u kichkintoylarning tasavvur olamini boyita oladigan, ma'naviy maroq berishga qodir, bolaning kayfiyatini chog' qilishga, mehnatga kayfiyatini uyg'otishga, rost so'zlashga, toza-ozoda yurishga chorlaydi. Uning ijodida g'oyat mazmunli asarlar borki, bolalar uchun filmlar yaratuvchi mohir rejissor ular asosida ajoyib sahna asarlarini suratga olishi mumkin.

Safar Barnoyev o'zbek xalqiga xos ezgulni, yuksak odob-ahloqni, ulug'likni va buyuklikni tarannum etishda uzoq va yaqin o'tmish mavzularga ham murojaat etadi. Shoir bolalarga xos ibratli an'analarni, milliy xususiyatlarni va urf-odatlarini o'z asarlarida yuksak mahorat bilan tasvirlab, uni hozirgi kun muammolarini hal qilishga mohirona yo'naltiradi. Quyida adibning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga mo'ljallab yozilgan "Chiroyli salom" nomli hikoyasi xususida to'xtalib, bir soatlik dars ishlanmasini keltiramiz:

Chiroyli salom (*Safar Barhoyev*)

Darsning maqsadi: O'quvchilarning to'g'ri va ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish. Salomlashish odobi haqida tushuncha berish.

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish.

Dars jihozi: Salomlashish odobini tasvirlovchi plakatlar.

Darsning borishi.

1 . O'tgan dars yuzasidan topshiriqlar berib, o'quvchilar bilimi sinovdan o'tkaziladi.

2. Yangi mavzuni o'tishga tayyorgarlik.

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashish odobi haqida suhbatlashadi. Uyqudan erta turish, badantarbiya qilishni yuvinishning xosiyatlari haqida savol-javob asosida suhki uyushtiriladi.

O'qituvchi. Bugungi darsimiz mavzusi ana shu salomlashish odobiga bag'ishlanadi.

3. O'qituvchi matnni o'qib beradi. Mazmunini so'zlash beradi. Kattalar so'ziga diqqat qilish, har bir so'zini esga oh qolishga harakat qilishga bolalarni rag'batlantiradi.

4. Lug'at ustida ishlash. Matndagi o'quvchilar uchun notanish so'zlarga izoh beriladi.

5. Matnni o'quvchilarga o'qitish. Oldingi darslardagi kabi o'tkaziladi.

6. Topshiriq bilan o'qish. Matn bir necha qismlarga bo'linib o'quvchilarga o'qitiladi. Mazmuni so'zlatiladi.

7. Mustahkamlash: O'qituvchi savol-javob asosida darsni mustahkamlaydi. Yoki testlardan foydalanishi mumkin:

Test:

1 . Nigina nima uchun kech uyg'ondi?

A. Allamahalgacha televizor ko'rgani uchun.

B. Ko'p uxlagani uchun.

2. Niginaning buvasi unga qanday tanbeh berdi?

A. Salom uvqudan barvaqt turib beriladi. — dedi.

B. Tanbeh bermadi.

8. O'quvchilar reytingi e'lon qilinib, dars xulosalanadi.

Safar Barnoyev ijodida millat hayoti, uning kayfiyati, orzu-istaklari, turmush tarziga oid rang-barang jihatlar asosiy o'rinni egallaydi.

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotning, shu bilan bir qatorda bolalar adabiyotining mavzu doirasi va g'oyaviy mundarijasiga katta o'zgarishlar kiritdi. Natijada bolalar adabiyotining mavzu doirasi va g'oyaviy mundarijasiga katta o'zgarishlar kiritdi. Natijada bolalar adabiyoti istiqloq va hurfiylik g'oyalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ozodlik, erkin fikrldash, Vatan osoyishtaligi, Vatanparvarlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik kabi qator mavzular asosiy o'rinni egallaydi.

Safar Barnoyev ijodida ham ana shunday mavzudagi keng ko'lamlı misralarnı uchratamiz. Xususan, adib asarlarida Ona Vatan mavzui har qanday kitobxon qalbida Vatanga bo'lgan muhabbatni uyg'otmay qo'ymaydi. Adib qalami Ona Vatanning turfa manzaralarini mohir musavvirdek xassoslik bilan tasvirleydi, yosh kitobxonni Ona Vatan oshuftasiga aylantiradi. Chunonchi, adib Vatan mavzuidagi asarlarida xalq va Vatan manfaati yo'lida tog'ni talqon qilishga, igna bilan quduq qazishga tayyor ekanini ifoda etadi.

Jumladan, adibning "Oq laylaklar", "Tinchlikni ulug'laymiz" hikoyalar to'plamida Vatan, tug'ilib o'sgan ona qishloq haqida sara hikoya va qissalar jamlangan. Xususan, adibning "Oq laylaklar"¹ hikoyasi Avaz ismli bolaning ona qishlog'i haqida yozilgan. Bola qishlog'ining nomi "Laylaxona" deb atalishidan or qiladi. Uni jamoat joylarda, to'y-marosimlarida boshqa qishloqdagi bolalar mazax qilib, ustidan kulishar ekan. Masxara bo'laverishdan bezor bo'lgan bo'lgan bola bir kuni buvasidan "qishlog'imizning nomini o'zgartirsak bo'lmaydimi?" –deb so'raydi. Avazning buasi avval kuladi, keyin nevarasining astoyidil xafa bo'lganini ko'rib, qishloq tarixini batafsil tushuntirib beradi. Uning aytishicha, ularning qishlog'ini dastlab Mingchinor deb atashgan. Oy laylaklar qishlog'imiz chinorlariga in qo'yib ketgach, atrof qishloq odamlari Mingchinorni unutib, Laylaxona deb nom berishgan ekan. Avaz esa uni aslo tushungisi kelmasdi. Hovlisidagi tut daraxtiga qo'yilgan laylak inini buzib, bir juft laylaklarni qaytmas qilib uchirib yubordi. Bundan keyinchalik afsuslanib qoladi ham. Shunda shunda qishloqlarining nomi o'zgarmaydi...

¹ Safar Barnoyev "Oq laylaklar" T.: 1982 yil.

Bu kabi kichik va sermazmun hikoyalar bollar qalbidan chuqur joy oladi. O‘z ona Vatanga bo‘lgan, mo‘jazgina qishlog‘iga bo‘lgan mehr-muhabbatini tobora oshirib boradi. Vatangan bo‘lgan sadoqat ana shu usul bilan tarbiyalanadi.

Safar Barnoyev ijodida vatanparvarlik va tinchlik g‘oyalari birgalikda tarannum etilgan. Shunisi muhimki, bu mavzuni yoritishda tiniq poetik kechinmalar, hayotiy obrazlar, jonli tasvirlar tobora ko‘proq egallab boradi. Adib Ona Vatan tabiatining oshufta kuychisi o‘z asarlaridada bu aziz Vatan tabiatining rango-rang manzaralarini yaratar ekan, shu bilan bir qatorda ulkan ma‘naviy-ma‘rifiy vazifani ham bajaradi. Zero, bolalar adabiyoti mustaqil O‘zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod ma‘naviyatini shakllantirishga ham mas’uldir.

Erta-indin ulg‘ayib, jazirama issig‘u, qahrataon qishini pisand qilmay, kechani kecha, kunduzni kunduz demay Vatan sarhadlarida posbonlik qiladigan bo‘lg‘usi askar yigitlar ham, Vatan tuprog‘ini Vatan tuprog‘ini gullab yashnagan bog‘u-bo‘stonga aylantiruvchi fidokor dehqon ham, chevar qizlaru, lohar ayollar ham, xullas, o‘z halol mehnatini ona Vatan taraqqiyoti yo‘lida, tinchligi yo‘lida, huzur-halovatiga bag‘ishlagan barcha kasb sohiblari S.B. singari ijodkor asarini o‘qib, vatanparvarlik hissini o‘zlarida singdiradilar.

Ta’kidlash joizki, Ona Vatan go‘zalligini madh etuvchi asarlar yosh kitobxon qalbini go‘zallikka oshno qiladi. Nafosat tuyg‘usi bilan limmo-lim qalblar esa buyuk ishlarga qodir, vayron etuvchi emas, balki yaratuvchi bo‘ladi.

Iqtidorli bolalar adibi Safar Barnoyev “Ta’qdir” balladasida yaqin o‘tmish voqealari, jumladan, shaxsga sig‘inish davri fojialari, undan avvalgi “quloq” qilish siyosati, keyinchalik urush yillaridagi talato‘plar, oila ustuni bo‘lgan otadan qora xat kelishi, so‘ngra Afg‘oniston tuprog‘idan kelgan tobutlar jabri, oxir-oqibat istiqloq tufayli erishilgan hur zamon nashidasi xalqona, sodda misralarda tasvirlangan:

Men ne ko‘rdim,
Men ne bildim.
O‘zimga ayon...
Bilganim shul – bobom “quloq”,
Onam yig‘lar,
Biz ne uchun dunyoga keldik,
Ota, ayting, peshonamiz
SHo‘rmidi shuncha.
O‘z tug‘ilgan qishlog‘iga
Qaytmadi bobom...
Yig‘lab-yig‘lab, yer mushtladi,

Bir umr momom...¹

Safar Barnoyev balladada hayot haqiqatini, xususan, 1937 yilgi qatag'on voqealarini tasvirlashda xalq og'zaki ijodiga xos uslubdan va jonli xalq tili boyliklaridan unumli foydalangan:

Ko'z oldimda
Bir kun tog'am,
Fo'llarin boylab.
Qon yig'latib, allaqayga
Olib ketdilar.
Jiyanlarim, yangam qoldi,
Yig'lab, dod-voylab.²

Shuni e'tirof etish joizki, Safar Barnoyev ijodida "Urush" mavzusi yetakchi mavzulardan sanaladi. U o'z tarjimai holida yozishicha, "...onam sen olti oyga to'lganingda otang urushga ketdi: "Mening kafanim bo'yninga o'ralgan, qaytib senlarni ko'rolmayman", deb seni bag'riga bosib yig'ladi", der edi. Otam biz bilan abadiy xayrlashganini keyin tushundim. Bu endi mening mangu armonim... "Biz urush bolalari", degan she'rlar yozishim shundan. Bu rost. Zero, balladada ta'kidlab o'tilgan.

So'ng otam ham jangga ketdi,
Keldi qora xat
Darvozamiz tepasiga
Qo'ndi boyo'g'li.

Singari misralar orqali adib o'z qismatiga ishora qiladi. Demak, asarning bosh qahramoni shoirning o'zi. Bosh mavzu esa qatag'on yillari va urush qoldirgan jarohatlarni ko'rsatish orqali hozirgi yoshlarni istiqloq ruhida tarbiyalashdan iborat. Asar so'ngida shoir e'tirof etgan ishonch:

Nevaramning shodligini,
Ko'rmoqda bashar...
Taqdiri-yu, tahqiri-yu,
Ishlari bilan, Amir Temur
Poyiga gul,

¹ S.Barnoyev. Taqdir // "Gulxan", 1998, №8. 11-bet.

² S.Barnoyev. Taqdir // "Gulxan", 1998, №8. 11-bet.

Qo‘ygan naslmiz...

misralari orqali ifodalagan.

Bolalarning sevimli ijokori S.Barnoyev har bir o‘g‘il-qizni o‘z yurtiga sadoqatli bo‘lishga da‘vat etadi. Buni quyidagi misralar orqali ularga yetkazadi:

Yurtga sadoqat, qonimizda bor.

Mehru-oqibat

Jonimizda bor.

Qutu baraka

Mehmonga hurmat

Yoygay dasturxon

Qonimizda bor.

Shunday toplangan

Muskullarimiz.

Qo‘limizdadir

Xush kunlarimiz.¹

Safar Barnoyev yosh avlodni xuddi ajdodlarimiz A.Temur, J.Manguberdi singari mard, jasur va kuchli qilib tarbiyalashning zarurligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda adibning kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga mo‘ljallab yozilgan “Amir Temur” nomli hikoyasi xususida to‘xtalib, bir soatlik dars ishlanmasini keltiramiz:

Mavzu: Amir Temur (*Safar Barhoyev*)

Darsning maqsadi: O‘quvchilarning o‘qish malakalarini rivojlantirish. Vatanimiz o‘tmishiga hurmat, buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganishga qiziqish, Vatan tarixiga qiziqish uygotish.

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, mashq.

Dars jihozi: Amir Temur portreti.

Darsning borishi.

1 . O‘tgan dars yuzasidan so‘rab, o‘quvchilar bilimini baholash oldingi darslar kabi o‘tkaziladi.

2. Matnni o‘qishga tayyorgarlik. O‘qituvchi Vatanimiz o‘tmishi haqida so‘zlab, ulug‘ Sohibqiron Amir Temurning kim bo‘lganligi, uni hozirgacha ham xalqimiz unutmaganligi, uning ko‘rsatmalaridan, hikmatli so‘zlaridan foydalanish haqi

¹ Safar Barnoyev. “Yurtga sadoqat” she‘ri. // g‘uncha 1998-№2-B12.

da bolalar yoshi, saviyasiga mos qilib so'zlaydi.

3. Matnni o'qituvchi o'qib beradi. Matn mazmuni tushuntiriladi. "Kuch—adolatda" degan hikmatning ma'nosi tushuntiriladi.

4. Lug'at ustida ishlash:

sarkarda — Vatan himoyachilari boshlig'i;

hikmat — ibratli so'zlar;

adolat — haqiqat, to'g'rilik.

5. O'quvchilar matnni ichda o'qiydilar. Matn navbat bilan o'quvchilarga o'qitiladi. Mazmuni so'zlatiladi.

6. Savol-javob asosida dars mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Umumlashtirishda zanjir o'yinidan ham foydalanish mumkin (buyuk, kuch adolatda, adolat, Temur).

7. Uyg'a vazifa. Amir Temur haqidagi materiallardan o'rganib kelish.

Bolalar dunyosi ajoyibotlarga to'laki, u bolalarcha soddalik bilan yozgan maktubdagi ba'zi satrlar faqat bu xatni she'riy yo'lda kitobxonga havola qilayotgan shoirnigina emas, balki shu she'rni o'qiyotgan yosh kitobxonni ham o'ylantirib qo'yadi. Har bir ijodkor uchun o'z asarlari bilan bolalar qalbini zabt etish, ularga quvonch va shodlik baxsh etishdan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Safar Barnoyev ana shunday baxtga erishgan, bolajonlar qalbidan o'rin olgan, uning sevimli do'stiga aylanib ulgurgan adibdir. U ona Vatan siymosi obrazini ijod namunalarida shunday tasvirlaydiki, go'yo kitobxon Vatan siymosini o'z ko'zi bilan ko'rgan va undan zavqlangandek. Shunday kichik-kichik hikoyalari orqali bolalar qalbiga, kitobxonning tafakkur olamiga kirib boradi. Ayniqsa, bolalarga qiziqarli sport o'yinlaridan hikoya qilinsa, bola uchun sevimli bo'ladi. Jumladan, adibning "Uloqchining nabirasi"¹ hikoyasi bolalarga ham ibrat, *намуна, ҳам ҳаваҷ* hissini uyg'otadi. Hikoyaning bosh muallifi shermuhammad Qo'ziyev polvon. U o'zbek kurashini butun dunyoga tanitadi. Yunon-rim kurashi bo'yicha xalqaro sport ustasi hisoblanadi.

Boshi uzra Vatan bayrog'i ko'tarilganda ko'zlaridan yosh chiqib ketib ichida madhiyasini takrorlab turadi. Tug'ilgan yeriga g'olib bo'lib, olqishlarni, qarsaklarni olib qaytadi. Onasi bo'lsa, bu mening bolam, deb yer yuzi onalariga o'g'lini ko'z-ko'z qiladi. Bundan sportchi qanchalik faxr-iftixor hissini tuyishini tasavvur ham qilolmaysiz. Asardagi mardlik, jasurlik, fidokorlik kabi xislatlarga bolalarni chorlashning o'zi ham ulkan mahorat. Adib ana shunday

¹ Safar Barnoyev "Uloqchining nabirasi" // "Gulxan", 1998-№3. B8-9.

beg‘ubor bolalikni xotirlash asosida yaratilgan o‘nlab, minglab asarlari hayotiy voqaalarning hosilasi ekanligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida Vatan mavzui, yuqorida qayd etilganidek, bolalar adabiyotining ilk qadamlaridan boshlanadi. Shoirlar dil tug‘yonlarining eng baland pardalarini doimo azizu mukarram Ona Vatan vasliga bag‘ishlaydilar, uning betakror tabiatini to‘lib-toshib madh etadilar. Zero, Vatan Ona qadar muqaddas, Ona qadar mukarram va musaffodir. Vatanning noz-ne‘matlari, bog‘u-bo‘stonlari, gulzorlari, chamanzorlari qanchalik go‘zal bo‘lsa, tog‘u-toshlari, cho‘lu-biyobonlari ham, jazirama yozi-yu, to‘kin kuzidan ham birday go‘zallik izlaydi, ularni bir xil ohangda tarannum etadi.

Safar Barnoyev milliy ijodkor sifatida o‘z ijodida millat farzandlarining hayoti, uning kayfiyati, orzu-istaklari, turmush-tarziga doir rang-barang jihatlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Safar Barnoyev ijodida bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash vazifasi o‘ta mahorat bilan o‘z ifodasini topgan. Adibning “Tilla qizim”¹ nomli hikoyasini olaylik. Unda Nigina ismli qizning hayoti ifodalangan. U ko‘p balalar qatori ertalab bog‘chaga boradi. Kun bo‘yi nima qilgani haqida oqizmay-tomizmay hisob beradi. Faqat uning boshqalardan ajralib turadigan bitta tomoni bor. Nigina dadasining oldiga borganda doim dadasi boshqa qizlarini va o‘g‘illarini nomma-nom tilga olib erkalaydi:

-Nilufar ona qizim, Nodira asal qizim, Davron polvon o‘g‘lim, Sardor erka o‘g‘lim. Buni ko‘rgan Niginaning avzoyi buziladi, dadasining ko‘ziga qarab, uni ham erkalatishini kutadi, sado chiqmagach so‘raydi:

-Dadajon men yomonmanmi?

-Yo‘q – deydi ota. –Faqat ular aytganimni qilishadi, sen bo‘lsang, “hozir” deysanu va‘dangni darrov unutasan.

Nigina bu gaplardan mayus tortib qoladi. Onasining yupatishidan so‘ng dadasining bo‘yniga osilib, “dadajon, aytganlaringizni qilaman” deydi.

Odatdagidek ota ertalab barvaqt turadi. Shu payt Nigina ham uyg‘onadi. Ota uni kuzata boshlaydi. Nigina atrofdagi oyoq kiyimlarini yig‘ib olib, birma-bir ho‘l latta bilan artadi. Bir yonida yarim tog‘ora suv, bir yonida quruq latta. U hamma oyoq kiyimini artib, chiroyli qilib tekislab taxlab qo‘yadi va dadasining oldiga kiradi.

-Kel-kel ona qizim,-deb chaqiradi ota. Keyin birga choy ichishadi va Nigina bog‘chaga, dadasi ishga ketadilar. Kechqurun dadasi qaytguncha Nigina uy ishlariga qarashib turadi. Buni ko‘rgan ota qizining kayfiyatini ko‘tarishga harakat qiladi. Dadasi dasturxon oldida kelib o‘tirsas, piyola, qoshiqlarni olib kelib qo‘yadi va otasi oldiga o‘tirib oladi. Keyin dadasi Niginani ham boshqa o‘g‘il-qizlariga qo‘shib maqtaydi va erkalaydi:

¹ S.Barnoyev “Tilla qizim”. //“G‘uncha” 1994, №5-6. 6-7 bet.

-Nilufar ona qizim, Nodira erka qizim, Nigina tilla qizim...

Bu hikoya bolalarning mehnatini rag'batlantirish va maqtash orqali boshqalarni ham shunga dav'at etadi. Safar Barnoyev ijodida bolajonlar kayfiyatini ko'taruvchi ajoyib asarlarni uchratish mumkin. Ana shunday ruhda, qisqa va lo'nda tarzda fikrni aniq ifoda etish fazilati ko'zga yaqqol tashlanadi.

Adibning yana bir quvnoq hikoyasiga e'tibor beramiz. Uning "Qori Ishkamba"¹ asari bolalarbop hikoya bo'lib, u kitobxonlar o'rtasida o'z o'rnini topgan. Bu hikoyada qishloq kishilarining hayoti, ularning soddaligi, mehmondo'stligi, bag'rikengligi, saxiyligi tasvirlanadi.

Qishloq bollarining qiziqqonligi asarda batafsil tasvirlab berilgan. Jumladan, hikoyada tasvirlanishicha qishloqda yangi tug'ilgan antiqa chaqaloq haqida duv-duv gap tarqaladi. Butun qishloq ahlini hayratda qoldirishi hamda chaqaloqni ko'rish uchun hamma odamlarning tashrif buyurishi qiziq va kulgili epizotlar asosida yoritib berilgan. Bu hikoya kichkina bola haqida bo'lib, u bola tug'ilganidan boshlab ko'p narsa yeydi. Bolalar qo'shnilarinikidan oziq-ovqat yig'ib kelishadi. Ota-onasi unday bo'lishini aslo kutmaydi. Shuning uchun ham unga "Kichkina qori Ishkamba" deb nom qo'yishadi. Bu asarda adib odob-ahloq, xarakter xususiyatlarining faoliyat jarayonida turlicha namoyon bo'lishini badiiy tasvirlarda yorqin ifodalaydi. Mazkur asarda adib bolaning yaxshi sifatlarini o'rnatib ko'rsatish bilan bir qatorda, ba'zi salbiy qusurlarini tanqid ham qiladi va shu yo'l bilan tarbiya ko'rsatadi.

Ma'lumki, bolalarning xarakter xususiyatida mavjud salbiy kamchiliklarni hazil-mutoyibaga yo'g'rilgan jumlar bilan ifodalash adib ijodiga xos sifatlardan sanaladi. Shuning uchun ham uning asarlari yosh kitobxon qalbiga juda tez yetib boradi. C. Barnoyev «Qizil gul» hikoyasida Munira ko'chatni sug'urib olish uchun qulay fursatni ancha kutadi. Shuning uchun undagi hayajon butun to'laligi bilan tashqi ko'rinishida, xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Muallif undagi bu holatni shunday tasvirlaydi: «Ko'zlari ola-kula bo'lib Munira ko'chaga chiqdi. Barnolarning eshigiga, ko'chaning boshiga qaradi. Hech kim yo'q. Yo'l yoqasiga chiroyli pol qilib ekilgan gullarning atrofida aylana boshladi. Barnolarnikiga yana bir qarab oldi-da, ko'chadagi bir tup gulsapsarni tag-tugi bilan yulib uyga qochib kirib ketdi».

«Qizil gul» hikoyasining keyingi epizodida Nodir gulni «hovlidagi gulzorga o'tqazadi, suv quyadi». So'ng otasi bilan uning o'rtasida qisqacha, samimiy suhbat bo'lib o'tadi. Ana shu suhbat bolaning qilgan ishini mustaqil va jiddiy o'ylab ko'rishga undaydi. U gulni sug'urib olganiga bir achinsa, otasiga yolg'on so'zlaganiga yana bir bor achinadi. Muallif Nodirdagi ruhiy iztiroblarni, bolalarcha sodd qalb kechinmalarini haqqoiy tasvirlaydi. Nodir qaramay desa ham har safar o'sha «ko'chati sug'urilib, o'pirilib qolgan joyga ko'zi tushib» azoblanadi, «ko'ngli g'ash» tortadi. Muallif-keyingi voqeada Nodirdagi g'ashlik kayfiyatini yanada o'rttirib

¹ Safar Barnoyev. "Kichkina qori Ishkamba" // "Gulxan" 1997 №3, 12-bet

ko'rsatadi. Sug'urib olingan gul yangi joyda na avvalgiday yashnab ketganida, bola ehtimol qilgan shini unutib yuborishi mumkin edi. Ammo tabiatning temir qonunlari bor. Ko'chat ma'lum vaqtdagina bir- joydan ikkinchi joyga ko'chirib o'tqazilsa, tutib ketadi. Agar bu ish u gullab turganida qilinsa, qurib qoladi. Muallif bu masalani hikoyasida to'g'ri ko'rsata olgan. «Barno» hikoyasida esa, yuqorida ta'kidlaganimizday, Munirani emas, balki shu ishning guvohi bo'lgan Barnoning ruhiy holatini ko'rsatish birinchi o'ringa chiqariladi. Hikoya qahramoni — Barno hech qachon o'g'rilikni ko'rmagan. Shuning uchun ham o'rtog'i Muniraning harakatlariga avval tushunmagan Barno uning «gulsapsarni tag-tugi bilan» yulib qochganini ko'rganida «turgan erida qotib qoladi». Oilada hamma vaqt o'g'rilikka nisbatan nafrat uyg'otilganligi uchun o'sha zahoti uning ko'ziga «Munira juda-juda yomon ko'rinib ketadi».

Demak, muallif «o'g'rilik yomon», «o'g'rilik qilsang seni o'rtoqlaring hurmat qilmay qo'yadi», degan pand-nasihatlarini qo'llamay, Barnoning ruhiy holati tasviri orqali hikoya matnida ana shu gaplarni bola ongiga etkazishga erishgan. Yomonlik bilan birinchi bor duch kelgan Barnoning qalbida ichki bir kurash ketadi. U qattiq iztirob chekadi. Buvisining gaplari ham, mehribonchiligi ham uning ruhiyatiga ta'sir qilmaydi. Qanday yo'l tutishni bilmay, boshi qotadi. Axir, o'rtog'ining yomon ishi uchun ogohlantirishi, buning oldini olishi kerak. Faqat qaysi yo'l bilan? Oshkora uyaltirsa ham bo'ladi. Ammo Barno boshqacha yo'l tutadi: u «Munira yulib ketgan gul o'rniga» o'z hovlilaridagi «gul ko'chatini avaylab olib o'tqazib qo'yadi». O'z ishi bilan Barno o'rtog'ini qattiq izza qiladi. Muallif Barnoning halol, pokiza ruhda tarbiyalanganligini yorqin bo'yoqlarda, qizcha tabiatidan kelib chiqqan holda ifodalay olgan.

Safar Barnoyev “Хавас”¹ номли hikoyasidagi Nodir qanchalik qiynalmasin, «o'pirilgan joyni» yo'qotish uchun nima qilish kerakligini mustaqil o'ylab topolmaydi. Muallif bu vazifani boshqa bir personaj — «Nodir tengi bola» zimmasiga yuklaydi. Natijada hikoyaga yangi obraz kiritiladi. Nodir «o'pirilib qolgan joyni kovlab, tuvagi bilan gul ko'chati» ekayotgan bolani ko'rib, sevinib ketadi. Bu yangi personaj Nodir ruhiyatida jiddiy o'zgarish ro'y berishiga sabab bo'ladi. U yaxshi ish qilayotgan tengdoshiga «havas bilan boqadi». Hikoyaning bosh qismida qahramon faqat qilgan ishidan iztirob chekib, xatosini tushungan bo'lsa, yakunlovchi qismida o'z manfaatini ko'pchilik manfaatidan ustun qo'ymaslik lozimligini, halol ishgina odamga quvonch keltirishini bilib oladi.

Umuman, har ikkala hikoya ham bolalarni halollik ruhida tarbiyalashda, tabiatga mehr bilan munosabatda bo'lishga va undagi go'zallikdan estetik zavq ola bilishga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

¹ Safar Barnoyev. Havas. // “Gulxan” 1999 №3, 12-bet

«Hasan bilan Husan» hikoyasida tashqi qiyofasi deyarli o'xshash — egizaklarning bir-biridan farq qiluvchi tomonlari kontrast-parallel tasvir usuli orqali mahorat bilan ko'rsatilgan. Hikoya g'oyasi singdirilgan inson odobi, farosati va ayniqsa, mehnati bilan boshqalardan ajralib turadi, degan fikr qiziqarli voqealar orqali ifoda etiladi. Hikoyada bobo egizaklarni qishloqqa olib ketadi. Xayrlashayotganda Hasan bilan Husanning onasi: «Mana endi nevaralaringizning otlarini aytishda yanglishmaysiz»,— deydi. Tinglovchida ham, o'quvchida ham o'z-o'zidan savol tug'iladi: «Qanday qilib almashtirmas ekan?» Syujet rivojlangan sari asar tuguni asta-sekin ochila boradi. Sabab tobora oydinlashadi.

Hikoya syujetiga asos bo'lgan voqealarni tasvirlashda "hikoyalarga xos takror usulidan foydalanilgan, Undagi to'rtta voqeada ham mazmun, ish-harakat o'zgarib boradi-yu, mohiyat o'zgarmaydi. Muallif har gal voqeada egizaklarning biron ishga bo'lgan ikki xil munosabatini ketma-ket tasvirlab boradi. Shunisi muhim va o'ziga xoski, har bir voqea tugallanmasida boboning nevarasi bilan bo'lgan quyidagi savol-javobi o'zgarishsiz to'rt marta takrorlanadi:

— Sen Hasanmiding, yoki Husanmiding?— deb so'radi bobo.

— Men Hasanman,— dedi nevara.

— Ha, aytgandek, sen Hasansan,— dedi bobo».

Bu parcha hikoyaning ta'sirchanligini oshirish bilan birga, o'quvchining hikoya g'oyasiga to'liq tushunib olishiga yordam beradi.

Hasanning harakatchanligi, farosatligi boboga ma'qul bo'layotganligini ta'kidlash bilan birga, Husan e'tiborini ham Hasan bajaragan ishga jalb etadi. Bundan tashqari, bu kichik takror — suhbat voqealarni bir-biriga bog'laydi.

Muallif hikoyada bolalar bajarishi kerak bo'lgan yumushlarni sekin-sekin kattalashtirib boradi. Oxirgi voqeada bolalarga ancha mas'uliyatli va nisbatan og'ir ish buyuriladi. Bobo nevaralariga «g'o'zapoyalarni yulib, bir erga to'plash»ni aytib, o'zi «ot-arava» topib kelishga ketadi. Yolg'iz qolgan ikki bola o'z tabiatidan kelib chiqib, boboning topshirig'ini ikki xil qabul qilishadi. Muallif ularning holatini tasvirlar ekan, o'quvchi ko'z o'ngida ikki xil manzara namoyon bo'ladi. Birinchi manzarada «g'o'za yulishdan» erinib, «ikki yuzi ko'kargan», «sovqotib, qaltirab», «tishlari taraqlab turgan Husanga achinish hissi uyg'otiladi. Husan shu darajada dangasaki, Hasan zo'r berib ishlab, «qip-qizarib» g'o'zapoya sug'urayotganida ham unga havas qilmaydi. U tezroq uyga, issiq pechka yoniga ketishni istaydi. Ikkinchi manzarada esa «ishlashga halaqit berayotgan»ligi uchun «qalin paltosini echib» qo'yib, zavq bilan ish qilayotgan Hasan ko'rsatiladi. «O'quvchi» uning qilayotgan ishlariga qiziqib, havas bilan qaraydi. Bola tengdoshlarining o'zlarini tutishlaridan, ishlaridan yaxshi va yomon tomonlarini yaqqol ko'rishadi. Hikoya davomida biron marta ochiq didaktika qo'llanmaydi. Hatto nasihat qilish kerak bo'lgan paytda ham bobo salobat va vazminlik bilan bu ishdan afsuslanayotganini

(«Husanning yuz yuvmagani chakki ekan-da» kabi) bildiradi. Umuman, hikoyaning biron erida Husan qoralanmaydi, yoki aksincha, Hasan maqtalmaydi. Bolalardagi yaxshi va yomon sifatlar aniq tasvir orqali ko'rsatilgani uchun «o'quvchi»ning o'zi mustaqil xulosa chiqarib oladi. Bunday xulosa chiqarib olishda muallifning nuqtai nazari, boboning nevarasi bajargan yaxshi ishlarni ma'qullab borishi turtki bo'ladi.

Hikoyaning xotima qismida yozuvchining Hasanga bo'lgan iliq munosabati yaqqol ko'rinadi: «G'o'zapoyalar yoniga Husanjonni o'tqazib qo'yдилarda, bobo bilan Hasan yonmayon o'tirib otning jilovidan ushlab, uyga qaytdilar».

Ikki bolaning ikki yoqda o'tirishida ramziylik bor. Chunki g'olib hamma vaqt to'rda o'tiradi. Mehnatdan qo'rqmagan, harakatchan, farosatli Hasanning o'rni orqada, g'o'zapoyalar yonida emas, balki oldinda, bobosining yonida, yana uning otiga bobosi bilan birga otning jilovini ushlab ketishi — katta sharaf. Bolalar buni juda yaxshi his qiladi va Hasan ularning sevimli qahramoniga aylanadi.¹

Adibning «Hassa» hikoyasi syujetiga o'zbek milliy odatlaridan biri — kattalarni hurmat qilish, ularning iltimoslarini bajonidil, «xo'p bo'ladi» deb bajarish odobi singdirilgan. Hikoya xuddi kichik hajmli sahna asariga o'xshaydi. Syujet tez rivojlanadi, voqealar bir-biriga uzviy bog'lanib ketadi. Unda ham «Hasan bilan Husan»dagi kabi uch personaj ishtirok etadi: Qobil bobo, uning ikki nevarasi — Shavkat va Shuhrat. Muallif hikoya voqeasiga biror marta aralashmaydi. Personajlarning o'zlari mustaqil harakat qilishadi. Bu kichik sahnada ko'rsatilgan voqea orqali bola odobning ichki go'zalligini ham his qiladi. Bunga sabab, yuqorida aytganimizdek, odob va odobsizlikning kontrast usulda tasvirlanishidir.

Tahlil qilingan hikoyalar syujetiga asos bo'lgan voqealar, kontrast usuli vositasida yaratilgan bola obrazlari kattalar uchun oddiy, bachkana, mayda-chuyda bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo bular maktab yoshdagi kichik bolalar uchun juda kerakli, tushunarli, hayotiy voqealar, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga molik obraz-lardir.

Safar Barnoyev asarlarini barcha yoshdagi bolalar bemalol miriqib o'qishlari mumkin. Adib ijodiga mansub asarlarni maktab yoshdagi kichik bolalar, o'rta yoshdagi, katta yoshdagi, shuningdek, o'smir yoshdagi kitobxonlar mutoola qilishadi.

Adibning maktab yoshdagi kichik bolalar uchun kontrast usuli asosida yozgan hikoya janridagi asarlari shu janrda, shu usul asosida yozilgan o'rta yoshdagi maktab o'quvchilari hikoyasidan farq qiladi.

Safar Barnoyevning ijodiga mansub maktab yoshdagi kichik bolalar hikoyalarida obraz yaratishda qo'llanadigan kontrast, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, matnda ochiq qo'llanadi. Maktab yoshidagi bolalar hikoyasida bu usulning borligi ko'pincha ochiq sezilmaydi. Balki

^{1 1} Safar Barnoyev. Ibrat. // "Gulxan" 1992 №6, 17-bet

«kosa tagida nimkosa» deganday, hikoya tagmatnida bilinib turadi. Masalan, унинг «Qorboʻron» hikoyasida «kuchlari taxminan teng» boʻlgan ikki bola — Kozim va Rustam obrazini yaratishda kontrast usulidan foydalanilgan. Muallif ikki bolani aslida bir xil vaziyatga tushiradi va ularning bir-biriga zid boʻlgan ikki xil tabiatini ochishga erishadi. «Qorboʻron» oʻyinida Kozim bilan Rustam yakkama-yakka «jang» qiladi. Jabbor degan bola Kozimga qor yumaloqlab beradi. Kozim ham, atrofdagilar ham bunga ortiqcha eʼtibor berishmaydi. Kozim bemalol, hech qanday xijolat tortmay, bironing mehnatidan foydalanadi. Rustam esa «qarindoshi Toʻlqin» qor yumaloqlab bermoqchi boʻlganida, nihoyatda ogʻir ahvolda, «qoʻllari sovuqdan qizarib, achisha boshlagan» boʻlishiga qaramay, yordamdan bosh tortadi.

Demak, muallif hikoyasida qoʻllagan kontrast usuli tufayli ikki bolaning oʻziga xos tabiatini aniq koʻrsatishga erishgan.

Xoʻsh, bu hikoyadagi kontrast qaysi jihatlari bilan maktab bolasiga tushunarsiz? Eʼtibor berilsa, hikoyadagi kontrast tagida chuqur fikr mavjud. Unda gʻirromlik bilan magʻrurlik, halollik toʻqnashadi. Yakkama-yakka «jang»dagi ana shu «oshkora gʻirromlik»ni loqayd tomosha qilayotgan bolalar jiddiy tanqid qilinadi. Hikoyada sodir boʻlayotgan bu voqealarning tub mohiyatiga tushunish uchun maktab bolasining, avvalo, turmush tajribasi etishmaydi.

Demak, adib ijodida maktab bolalariga moʻljallangan hikoyadagi kontrastdan farqli bu kabi qiyoslashda kitobxon mustaqil ravishda ikki koʻrinishni chogʻishtiradi. Yaʼni birinchi koʻrinish hikoyada toʻliq beriladi, ikkinchi koʻrinishga esa faqat shaʼma qilinadi. Buni bolalar oʻz mulohazasi orqali tushunadi.

Har bir ijodkor uchun oʻz asarlari bilan bollar qalbini zabt etish, ularga quvonch va shodlik baxsh etishdan ortiqroq baxt yoʻq. Safar Barnoyev ana shunday baxtga erishgan, bolalar qalbidan oʻrin olgan, uning sevimli doʻstiga aylangan adibdir. U yozgan asarlarni yoshlar ham, kattalar ham birdek oʻqiydi, undan estetik zavq oladi. Chunki adib tom maʼnoda inson qalbining bolalar dunyosining nazokatli kuychisidir. Uning ijodidagi Vatan madhi va vatanparlik ruhidagi tarbiya maromiga yetkazib tarannum etilgan. Hazil-mutoyiba orqali boʻlgan tasvir bevosita bolalar hayotiga va kayfiyatiga ham oʻz izini qoldiradi. Yaratgan har bir ijod namunasida adib maʼlum bir gʻoyani soddalik, qiziqarlilik va mayinlik bilan bolalarga yetkazishga urinadi. Uni shunday mahorat bilan yetkazadiki, shu gʻoya bola tafakkuriga, dunyoqarashiga oʻrnashib qoladi. Zotan, bolalar ongi va kuch-qudrati ham shunday tuygʻularni talab etadi.

Umuman olganda, Safar Barnoyev qaysi bir mavzuni qalamga olmasin, oʻziga talabchanlik bilan yosh kitobxonlarning ruhiyati va tushunchasini, dunyoqarashini hisobga olgan holda ijod qildi. Shu yoʻsinda oʻz gʻoyaviy maqsadini amalga oshirdi, aniq-ravon va batafsil bayon etish uslubi bilan ularga estetik zavq bagʻishlashga intildi.

Adib asarlarining mazmuni, g'oyaviy, badiiy, tarbiyaviy, estetik teranligi har bir o'quvchini ezgulikka chorlaydi. Safar Barnoyev ijodidagi ana shunday yetakchi g'oya barcha yoshdagi o'quvchilar uchun yozgan asarlarida o'z aksini topgan va u barkamol avlodni yorqin hayotga chorlovchi ko'prik vazifasini bajarib kelmoqda.

II.2. Safar Barnoyev ijodida badiiy mahorat.

Adabiyot soʻz sanʼatidir. Zero, unda soʻz zarganlari til vositasi bilan xarakter va manzaralar yaratadi. Adabiy asarlarda voyeqelik, hayot va kishilar ongi rivojlanishda, taraqqiyotda tasvirlanadi.

Oʻquvchining estetik zavqi va didini shakllantirishda badiiy adabiyot alohida oʻrin tutadi. Chuyeki badiiy asarni oʻqir ekanmiz, undagi voqelarga, personajlarga befarq qaray olmaymiz. Badiiy asarlar taʼsirida tugʻilgan mana shunday tuygʻular estetik tuygʻu deyiladi.

Estetik tuygʻu bizda yaxshi fazilatlarni parvarish qilib, har qanday yomonlik va razolatga qarshi nafrat, chinakam goʻzallikka nisbatan muhabbat hissini uygʻotadi. Shu asosga koʻra, yosh kitobxonlar nazarida ijodkor – sehergardir. Bu borada bugungi oʻzbek bollar adabiyotining yetakchi oʻzbek bolalar adabiyotining yetakchi namoyondasi Safar Barnoyevning yaratgan asarlari alohida ahamiyatga molik. Binobarin, adib qalamiga charxlangan asarlarning barchasida ijodkorning badiiy mahorati boʻrtib turadi.

Darhaqiqat, Safar Barnoyev asarlarining bosh mavzusi, gʻoyaviy mundariyasi boʻlmish fidoiylilik tuygʻusi va tuygʻularning samimiyligi uning deyarli barcha sheʼru dostonlariga, hikoya va qissalariga koʻrk bagʻishlaydi. Binobarin, u bolalar adabiyoti vatanimizning ertasini yaratuvchi yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga masʼul ekanini bir daqiqa ham nazardan qochirmaydi.

U qaysi mavzuda, qaysi janrda qalam tebratmasin halol, topqir va chaqir bolalar dunyosini kashf etishga intiladi. Doʻstlik, tinchlik va oʻzaro birdamlik, vatanparvarlik gʻoyalarini ilgari suradi. Uning asarlaridagi bolalarcha samimiylilik, begʻuborlik, rostgoʻylik va toʻgʻrilik adib ijod namunalarning jozibali boʻlishini taʼminlaydi. Shu maʼnoda oʻzbek bolalar adabiyotida Safar Barnoyev ham yuqori bosqichga koʻtarildi. Uning asarlari tesha tegmagan obraz, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu borada adibning “Qosim buvaning kulbasi”□ hikoyasi diqqatga sazovordir.

Adibning ushbu hikoyasida bosh qahramon Sodiqjon ismli bola. Ularning hovlilari ham koʻp qatori buziladigan boʻladi va oʻzlari koʻp qavatli uyga koʻchib oʻtadigan boʻlishdi. Bu xabar xonadon egasi boʻlmish rashid akaga yoqmaydi. Axir ota-bobolari shu uyga yashab oʻtgan, ulardan qolgan yagona yodgorlik boʻlsa, uni buzishlariga avval qarshi chiqadi. Keyin qoʻni-qoʻshni, qarindosh-urugʻlar qatorida koʻchishga majbur boʻladi. Eski kulbasini esa buzib, yarim puliga sotmoqchchi boʻladi. Soʻng onasining maslahati bilan yogʻoch, gʻishtlarni Sodiqjonning kichkina togʻasiga berib yuborishga kelishadi. Buni orqavorotdan eshitgan Rashidvoyning akasi Tojivoy kelib, ukasiga qolgan uyning gʻisht, yogʻochlarni begona qilmasligini va oʻzi olib ketib, uchastkasining kam koʻstiga ishlatishini taklif qiladi. Ukasi ham rozi boʻladi. Xullas, eski kulbada yarim paxsa devoru, otasi boʻlib tashlagan tuproq uyumlari qoladi xolos. Bu uyning naq ustidan keyinchalik katta yoʻl oʻtadi.

Ushbu hikoyada tug‘ilgan uy misolida ona Vatan surati gavdalanadi. Bolajonlarni o‘z uyini sevrishga, ardoqlashga o‘rgatish orqali ularda vatanparvarlik hissini mujassamlashtiradi. Shuningdek, hikoya tom ma’noda xazil mutoyibaga yo‘g‘rilgan personajlarga boy. Eski kulbaning yog‘och va g‘ishtini aka o‘z ukasiga, ota esa o‘z akasiga berishni tortishib qoladi.

Bu jihatdan adib hayotiy voqealarni gavdalandirgan. Shu orqali adib bolalarda urushqoqolik, qizg‘anchilik, baxillik kabi yomon sifatlarning shakllanishini oldini oladi.

Safar Barnoyev yosh avlodga yurtimizning muqaddas va muborak joylarini ko‘z qorachig‘iday asrashga murojaat etib, turfa xildagi asarlar muallifi hamdir.

Zero, 1917 yil oktabrdan keyingi 70 yil ichida necha-necha “Oqsaroy”larni eskilik qoldig‘i sifatida yakson qilmadik, qanchadan-qancha masjid, madrasalarini omborga aylantirmadik, ota-bobolarimizning jahon tarixi, ilmiy san’ati, madaniyati va adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissaalarini diniy qoldiq sifatida, ijtimoiy tengsizlik ramzi sifatida inkor qilmadik, o‘zimizni-o‘zimiz savdoyiga chiqarmadik, axir.

Shu ma’noda adibning “Qadimgi hikmat”¹ balladasi diqqatga sazovordir. Unda o‘zbek xalqining turmush tarzi, xarakter xususiyati ifodalangan:

Bu qadimgi rivoyat
Shunchaki to‘qilmagan.
Ming yillar o‘tsa hamki
Oxori to‘kilmagan.
O‘zbekning bobolari
Bekor turmagan bir payt.
YO bir ko‘chat o‘tqazgan
YO to‘qigan biror bayt.
Havoi gapdonlikdan
Uzoq yashagan mudom.
O‘zidan iz qoldirgan
Naslim etsin deb davom.

Adib ushbu misralar orqali xalqimizning, ota-bobolarimizning qanchalik mehnatsevar ekanligini mahorat bilan tasvirlagan. Hattoki, mehnatning kuchidan kuch, quvvatidan quvvat olib, yuzga kirganda ham mehnat qilib topmasligini quyidagi misralar orqali ifodalaydi:

¹ Safar Barnoyev. Qadimgi hikmat. // “Gulxan” 1999 №4, 12-13-bet

O‘zbekning bobolari
Yuzga ham kuchga to‘lgan.
Nechun, dersiz qarilik
Korini qilmaganmi?
Bu dunyoning tashvishi
G‘ayratin tilmaganmi?
Hamma gap shunda axir
Pok bo‘lgan niyatlari
So‘nmagan boylikda
Olgan qat’iyatlari.
Shijoat meros bo‘lgan
Keskirlik bo‘lgan baxti
O‘z so‘zida turmoqlik
Bo‘lgan suyang daraxti
Misol dersiz, misol ko‘p
Ko‘p bormaylik uzoqqa
Yuzga kirgan otaxon,
Chiqmish ko‘chat ekmoqqa...

Darhaqiqat, bu she‘r asosiy tarbiya vositasi ham hisoblanadi. Ajdodlarimizni nomini ko‘rsatish orqali bolajonlarni mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, va‘dagi vafo shijoat, qat’iylik kabi ijobiy hislatlar ruhida tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi.

Adib “Rahmat sotilmaydi”¹ she‘rida bu dunyoning turfa sir-sinoatlaridan shahzodaning xabardor bo‘lishi haqida hikoya qiladi:

Ajab dunyo bir kunda
Ming bir marta aylanar.
Ko‘zin ochgan chaqaloq
Yashash uchun shaylanar.
Yashash degan haqiqat
Bizga meros umrbod.
O‘qish kerakdir faqat,
O‘qmagan bo‘lar barbod.

¹ Safar Barnoyev. Rahmat sotilmaydi. // “Gulxan” 1994 №4, 11-12-bet

deb boshlanuvchi misralar bolalarni tom ma'noda vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Kimdir yashar elim deb,

Kimdir tayyorga ayyor.

Birov yashar tekin yeb,

Eh-he qusurlar bisyor.

Ushbu she'rning hatto sarlavhasi ham ma'lum ijtimoiy mehnat kasb etadi, yosh kitobxon qalbida Ona Vatanning har bir zarrasi, hatto arzimagan bir go'shasisifatida mustahkam o'rin egallashiga zamin hozirlaydi.

Adiblar hikoya, qissalari orqali, ya'ni ertak qahramonlari – hayvonlar, o'simliklar orqali bolajonlarni ezgulikka yetaklaydi. Hikoyada salbiy obrazlar hamisha tanqidga uchrashi, ijobiy obrazlar esa doim buyuklikka, ulug'likka yetishi tasvirlanadi.

Xususan, Safar Barnoyevning "Qasos"¹ hikoyasida kishilar va urushlarning o'zaro do'stligi ifodalangan. Ayvonning shiftiga qaldirg'och in qura boshladi. Ushbu inga qandaydir chumchuq kirib oladi. Buni ko'rgan qaldirg'och in og'zini berkitib tashlaydi. Bunday hodisani kuzatib turgan mastura buvi shunday deydi: "Qara-ya shu jonivordayam qasos bora. Omon bo'lsa boshqachasini ko'rishadi". Bu bilan birovga o'zganing mulki buyurmasligi ta'kidlanadi.

Hikoyada tirik jonzotlarning, ya'ni qushlarning odamga bo'lgan sadoqati va aksincha, insonning ularga ko'rsatadigan mehr-muruvvati shu qadar ulug'langan-ki, bu o'zbek bolalar adabiyotida yaxshigana tarbiya vositasi bo'la oladi.

Ertaklar dunyosi bolalarni botir, jasur bo'lib voyaga yetishlarida asosiy vosita bo'ladi. Shuningdek, bilim olish, hunar egallash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga undovchi vosita hisoblanadi.

Darhaqiqat, adib ijodida bu kabi sifatlarning qo'llanilishi, uning ijod namunasining mavzu ko'lami rang-barangligidan dalolat beradi. Uning "Sen va Siz" nomli ertak janrida yaratgan asari fikrimizning yoriqin dalilidir. Shu o'rinda adibning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga mo'ljallab yozilgan "Sen va Siz" nomli adabiy ertagi xususida to'xtalib, bir soatlik dars ishlanmasini keltiramiz:

Mavzu: Sen va Siz (Safar Barnoyev)

Darsning maqsadi: O'quvchilarni mehr-oqibatlilik, muomalalikka o'rgatish, o'z maqsadiga erishish yo'lida tinl siz izlanishga, mehnat qilishga o'rgatish, o'quvchilar liij boyligini oshirish, ravon o'qishga o'rgatish, xalq og'zaki ije bilan tanishtirish.

Dars tipi: Yangi bilim beravchi.

¹ Safar Barnoyev. Qasos. // "Gulxan" 1998 №3, 16-17-bet

Dars jihozi: Darslik, matnga ishlangan rasm.

Dars metodi: Suhbat, hikoya, amaliy mashq.

Darsning borishi.

1. Xuddi oldingi darslardagidek o'tgan darsni o'zlashtirish darajasi tekshirib ko'riladi. Bunda muammoli vaziyatni test va boshqotirmalardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarning o'qish malakalari ham tekshirilib ko'riladi.

2. Yangi mavzuni o'tishga tayyorgarlik.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomala odobi haqida suhbatlashadi.

Odamlarga murojaat qilganda "sen" yoki "siz" deb murojaat qilishning farqi va ahamiyati haqida so'zlaydi. Ayniqi o'zbek millatiga xos bo'lgan sizzling murojaat qilish haqida, mulohazalarini aytadi.

O'quvchilarda shakllangan o'zaro muomalaning xususiyatlarini bilish maqsadida qisqa savol-javob o'tkazadi:

— Uyda ota-onangizga qanday murojaat qilasiz?

— Opa-akalaringizgacha?

— Sinfda dugonangizga, do'stlaringizga qanday murojaat qilasiz?

Bunda nafaqat *sen* va *siz* so'zlari, balki *marhamat*, *rahmat*, *sog' bo'ling*, *labbay* kabi o'zbekona go'zal muomalalar haqida gap yuritilsa, yaxshi bo'ladi.

3. Matnni o'qish. O'qituvchi matnni ifodali qilib o'qib beradi. Mazmunini so'zlab beradi. Matn mazmuni bo'yicha qisqa savol-javob o'tkaziladi.

— Sizjon qayerga chiqibdi?

— Yo'lda u kimlarga uchrabdi?

— U Baxtlar vodiysiga qanday qilib yetib boribdi?

— Senvoy nima qilibdi?

— Yo'lda uchraganlar bilan qanday muomala qilibdi?

— Senvoy manzilga yetibdimi?

Savol-javobni o'qituvchi yakunlaydi. Hissa ustida ishlana-Unda matnning mazmuni tushuntiriladi. **4.**

Liug'at ishi:

SMrinsuxanlik va xushmuomalalik - - yaxshi muomala qilish, qo'pol gapirmasdan hurmat bilan so'zlashish;
osNnono'par — juda baland;
aso>v daryo — suvi juda kop, tez oqadigan daryo;
battiuzur — bermalol;
meinsimaslik nazar-pisand qilmaslik, hurmat qil-maslik.

O'quvchilar,(a ijobiy (yaxshi) va salbiy (yomon) sifatlar haqida g^apirit, xattaxtada ikki tomonga ikki xil sifatni yozib davom ettirish topshiriladi. Ijobiy (yaxshi) sifatlar: xushmuomalalik,kcattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo'lish... Salbiy (yomon) sifatlar: qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik...

5. O'quvchilarga o'qitish: Hikoya 4 ta qismga bo'lib, 4 o'quvchigga o'qitiladi. O'qish davomida o'quvchilarga ijodiy ilklashgaa doir topshiriqlar berib, ularni o'qishga qiziqtiriladi. 2—3 marta main o'qitiladi va mazmuni so'zlatiladi.

6. Darsni mustahkamlash qismida testlardan foydalanish mumkin.

1 . Sizzjon nima uchun safarga chiqibdi?

A. Baxt izlab.

B. Shhahar aylangani.

2. Sizzjonning manzilga yetishiga nima sabab bo'libdi?

A. Qco'polligi, qo'rsligi.

B. Xupshmuomalaligi. shirinsuxanligi.

3. Sepnvoy nega manzilga yeta olmabdi?

A. Qoo'polligi va qo'rsligi (uchun).

B. Xuiishmuomalaligi, shirinsuxanligi uchun.

7. Q'J'quvchilarning darsga qatnashish darajasiga qarab, ularning r reytingi aniqlanadi va dars xulosalanadi.

Safar Barnoyevning ijod namunalaridagi bir asosiy mavzu bir qator qo'shimcha va rang-barang mavzuchalar ichida qo'llaniladi-ki, bunda asosiy mavzuni ажратиб олиш китобхондан диққат-эътибор ва улкан маҳорат талаб qiladi. Shu jumladan adibning “Oynur”¹ hikoyasi ajoyib ma'rifiy, ma'naviy, tarbiyaviy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan asardir.

Hikoya qahramoni Oynur iboli, hayoli, aqlli va bilimli qiz. U Hamidulla akaning yettinchi qizi. Oilada kenja bo'lishiga qaramay, erkalik, injiqlik kabi sifatlardan mutlaqo yiroqda.

¹ Safar Barnoyev. Oynur. // “Gulxan” 1992 №6, 23-bet

Bir kuni u tramwayda ikki o'rtog'i bilan gap ustida talashib qoladi. O'rtoqlari o'zlari kiygan antiqa, importniy shim, tufli, kastyumlarini maqtab, Oynurning kiygan kiyimi bilan uyaltirmoqchi bo'ladi. Ammo Oynur bunday kiyimlarni yoqtirmasligi va dadasi olib bergan kiyimni kiyishini aytadi. Qizlar ancha baxslashadi va tramway to'xtagach Oynur ulardan ajralib, uyga qaytadi. Qizchanning bunday harakatini kuzatib turgan qo'shnisi unga qoyil qoladi. Kamdan-kam yangi kiyim kiyadigan, opalarining tor kelgan kiyimlarini kiyib yuradigan qizaloq uyga borib xarxasha qilmaydi, aksincha, u ertasiga ham, indiniga ham bejirim kiyimlarini kiyib maktabga bordi. Oradan oylar, yillar o'tdi. O'ynur hamon o'zgargani yo'q.

Ushbu hikoyani o'qigan kitobxon, albatta har jihatdan Oynurga havas qiladi. Chunki u har jihatdan o'rnak olsa arziydigan qiz. Adib shu jihatlarni ham e'tiborga olib, ma'naviy-tarbiyaviy xususiyatga ega asarni yaratganki, u bolalar ongiga juda tez kirib boradi va xotirasiga uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda bu asar asosiy tarbiya vositasi hisoblanadi.

Safar Barnoyev o'zbek bolalarining xarakter xususiyatini shu qadar mahorat bilan o'rganganki, hatto ularga qanday mavzudagi she'rlar va hikoyalar ma'qul bo'lishini qalbdan sezadi. U o'zi to'qigan ertaklarda bolalarga yaqinlik beradigan, fikrni boyitadigan, tarbiyasiga asosiy ta'sir qiladigan masalalarni qalamga oladi. Bunday asarlarda insoniylik, do'stlik, vatanparvarlik kabi motivlar yetakchilik qiladi. Ikkinchidan, adib asarlarining jonli, o'qimishli, qiziqarli bo'lishi, uning o'quvchi ongiga yetib borishigi intiladi.

Ma'lumki, kattalar obrazi asarning umuman qaysi joyida qatnashishidan qat'i nazar, g'oyaviy-tarbiyaviy vazifani bajaradilar. Shu g'oyaviy niyat yozuvchilarimizning ko'plab hikoyalarini mazmunan bir-biriga yaqinlashtiradi. Lekin hikoyalarda bolalar obrazini yaratishda bo'lganidek, kattalar obrazini yaratishda ham har bir adib o'zligini namoyon etadi.

Safar Barnoyev hikoyalarida ishtirok etuvchi katta odamlar kichik qahramonlar bilan qalban yaqinligi, do'stona samimiyati, tarbiyaning har xil usullarini donolik bilan qo'llay olishi, bola xulqiga ijobiy ta'sir o'tkaza olishi bilan ajralib turadi. Masalan, uning «Badjahl bobo» hikoyasini olib ko'raylik. Bu hikoyani katta guruh bolalari ham, kichik maktab yoshidagi bolalar ham juda yaxshi qabul qilishlari mumkin.

Hikoyaning asosiy qahramonlari — Qudrat va uning bobosidir. Qudratning adasi hikoya boshi va oxirida, buvisi esa faqat bir ko'rinishdagina ishtirok etadi.

Muallif hikoyadagi boboni mehnat jarayonida ko'rsatadi. Bobo yozgi ta'tilda adasi tomonidan dam olishga olib kelingan nevarasi Qudrat bilan xuddi katta odamlar bilan gaplashayotganday gaplashadi. Bu munosabat hikoya qahramonida boboga nisbatan dastlab har xil salbiy va ijobiy fikr uyg'otadi. Buni muallif bobo va nevara o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatlar vositasida ishonarli ko'rsata olgan. «Qudrat pastakkina toshdevor yoniga tashlab qo'yilgan sholchada o'tirib olma to'g'rayotgan bobosiga yaqinlashdi:

— Bobo, sizlarning uyingizda kichkina bolalar yo'qmi?—deb so'radi.

Yo'q. Bolalarimizning hammasi katta bo'lishgandan keyin sening

— adangga o'xshab shaharga ko'chib ketishgan. Biz cholu kampir yolg'iz qolganmiz,— dedi bobosi.

— Unda men kim bilan o'ynayman?

— Nima, sen bu erga o'ynagani keldingmi?—dag'allik bilan so'radi bobosi.

— Ha, dam olgani keldim.

— Ie, nima ish qilib charchading, dam olasan?»¹

Boboning bu so'zlaridan, nabirasiga bo'lgan munosabatidan o'quvchi va maktab bola ko'z o'ngida qo'rs, to'ng odam gavdalanadi. Muallif bobodagi ana shu qo'rslikni yana ham kuchaytira boradi. Ayniqsa, boboning Quadratga qarata aytgan, «Dam oladigan odam oldin charchashi kerak», «bizda tekintomoqqa ovqat yo'q» kabi so'zlari, tabiiyki, bolaning ixlosini qaytaradi.

Safar Barnoyevning mahorati shunda ko'rinadiki, u bobo tabiatidagi bu xususiyatlar chin emas, «yasama» ekanligini hikoya davomida aniq ocha boradi. Bobo va nevara o'rtasida keskin «qarama- qarshilik» paydo bo'l-ganligini segan buvi voqeaga aralashadi.

—«Hoy bag'ritosh, nega bolaginamni o'takasini yorasiz. Sizning sovuq hazilingizni go'dak narsa tushunarmidi?!—gapga aralashdi kampir.

— Sen tek tur,— qovog'ini soldi bobosi,— erkaklarning gapiga aralashma».

Hikoyada «erkaklar» so'ziga alohida g'oyaviy vazifa yuklangan. Bobosining badjahlligi, qo'polligi uchun yomon ko'ra boshlagan Quadrat qalbida bu so'z ikkilanish uyg'ota boshlaydi. Chunki u bobosi o'zini «erkaklar qatoriga» qo'shganidan quvonadi. Hikoyaning shu nuqtasidan boshlab boboga berilayotgan tavsif ijobiy tus oladi. Bunda epizodik obraz buvi ham muhim vazifani bajaradi. Quadrat asta-sekin «bobosi yumshoq gapirishni bilmasa ham, yomon odam emas ekan» degan xulosaga keladi.

Muallif shu sabablar tufayli Quadratning bobosi haqidagi avvalgi fikrlaridan qayta boshlaganini ham badiiy asoslay olgan. U endi bobosi aytganlarini qila boshlaydi, mehnatdan qochmaydi. Shunisi muhimki, F.Musajon bobo va nabira o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishini shunchaki bayon etmay, uni badiiy ko'rsatadi va asoslaydi. Bu hikoyaning yechimigacha saqlangan.

Demak, hikoyada bola bobosidagi ma'naviy yuksaklikni, mustahkam irodani, iliq mehri his qiladi. Bobo o'z xislatlari bilan nevarasi qalbiga yo'l topadi. Uning tushunchasida burilish yasaydi, mehnatga, dam olishga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishga muvaffaq bo'ladi. Hikoyadagi bobo bolalarlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi katta odam obrazidir.

Safar Barnoyevning «Yordam» hikoyasidagi Manzura opa — bolalarlar tabiatini shakllantirishda katta rol o'ynovchi onalar timsoli. U samimiyligi, mehribonligi, yuksak ma'naviyati, xalq mulkiga sadoqati bilan bolalar qalbida mehr-muhabbat uyg'otadi. Ona farzandining tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarga bo'lgan qiziqishiga e'tibor bilan qaraydi. Qizining ustma-ust bergan savollariga atroflicha javob berishga harakat qiladi.

Onaning bola hayotida bo'lishi mumkin bo'lgan voqeani misol qilib, uning savoliga javob qaytarishi bolalar ruhiga qattiq ta'sir qiladi. Shu tariqa hikoyada bola qalbida Vatanga muhabbat, va'daga vafo kabi tuyg'ular uyg'otiladi.

Bu hikoyada yaratilgan katta odam (ona) obrazi F. Musajonovning «Badjahl bobo» hikoyasidagi katta odam (bobo) obrazidan o'zining ochiq ko'ngilligi, soddaligi bilan farq qiladi.

Safar Barnoyevning «Lolaning guli» hikoyasida katta odamlar — Lolaning buvisi va maktab opa asar syujetining boshidan-oxirigacha bevosita ishtirok etadi.

«Yordam» hikoyasidagi singari bu hikoyada ham oilada bola qalbida uyg'otilgan mehnatga havas maktabda mustahkamlanadi. Ikki holatda ham maktab bilan oilaning mustahkam aloqasi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi samarali natija berishi ko'rsatiladi.

Bola qalbida mehnatga muhabbat hissini uyg'otishda yozuvchilar o'ziga xos usul qo'llashgan. Safar Barnoyev hikoyasida ona bilan qizcha o'rtasidagi suhbat orqali ko'zlangan maqsadga erishadi. Onaning gaplari bola ongiga ta'sir etib, uning qalbida mehnat qilishga ishtiyoq qo'zg'aydi. Demak, asarda qo'llanilgan badiiy vositalardan biri — dialog g'oyani ochishda hal qiluvchi vazifani bajaradi. Safar Barnoyev bolalar qalbida mehnatga, tabiatga muhabbat hissini boshqacha usulda ko'rsatadi. «Lolaning guli» hikoyasida ishlatilgan savol-javob ko'proq qahramonlarning o'ziga xos xislatlarini ochishga xizmat qilgan. Masalan, muallif buviga xos bo'lgan xislatlarni alohida yoki qandaydir kichik chizgilar orqali tasvirlamagan bo'lsa ham, nevarasi bilan bo'lgan suhbat orqali tinglovchi — bola uni bemalol ko'z oldiga keltira oladi. Birinchi savol-javobga e'tibor beraylik:

— Nima qilyapsiz, buvijon,— dedi qoshlarini chimirib Lola.

— Gul ekyapman, qizalog'im,— dedi buvisi erkalab. Keyin undan so'radi:— Bugun maktabingga borasanmi?

— Ha, boraman,— dedi Lola.

Suhbatdan buvining ko'pni ko'rgan, vazmin tabiatli ayol ekanligi bilinib turibdi. Shuningdek suhbatda Lola buvisini qanchalik samimiy yaxshi ko'rsa, buvisi ham nevaraga shunchalik samimiy muhabbat va hurmat bilan qarashi bilinyapti. Buvi u bilan xuddi katta odam bilan suhbatlashganday gaplashmoqda. Shuning uchun Lola har bir narsa yuzasidan mustaqil fikr yurita oladi. Masalan, hikoyada buvisi Lolaga maktabdagi gulzorga gul ekishni, u chiroyli bo'lib ochilsa, Lola o'rtoqlari bilan atrofida o'ynasa, qanday yaxshi bo'lishini gapirmaydi. Yoki

Lolaning o'zi bu haqda har xil savollar bermaydi, balki jimgina «buvisining qanday gul o'tkazayotganini tomosha qila» turib, maktabdagi gulzorni eslaydi. Xotirasiga «gulzorda o'rtog'i Gulnor bilan kapalak tutmoqchi bo'lishgani» jonlanadi. Uning qalbida o'sha gulzorga buvisi kabi gul ekish istagi uyg'onadi. Muallif bola obrazini nihoyatda nozik qirralarigacha ishonarli yaratgan. Lolada gul ekish fikri mustaqil uyg'onadi. Lekin buvisiga o'z fikrini aytayotganida hayajonlanadi, «yuzlari qizarib ketadi». Chunki bu mustaqillik hali kurtak shaklida, uni qo'llash, mustahkamlash kerak. Shuning uchun ham asarda ishtirok etayotgan katta odam obrazining vazifasidan biri bu fazilatni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Muallif bunga alohida ahamiyat bergan. Masalan:

— «Maktabimizda-chi buvi, katta gulzor bor, o'sha yerga ekaman.

— Xo'p, xo'p qizalog'im,— dedi buvisi kulib, qani, savatchangni olib kel! Lola uydan savachasini olib chiqdi. Buvisi unga shoyigul, karnaygul, gulbeor ko'chatlaridan olib berdi».

Hikoyaning bir kichik epezdida ishtirok etgan o'qituvchi, xuddi «Yordam» hikoyasidagi kabi bolaning mehnatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi.

— Bu nima, Lola!—deb so'rashdi bolalar savatchadagi ko'chatlarga qarashib.

— Bu gul,— dedi Lola,— buni-chi, opa, buvimlar berib yubordilar, maktabga ekamiz.

— Juda yaxshi,— dedi Shohida opa Lolaning qo'lidan savachasini olib,— hozir hammasini gulzorga ekamiz...»

Yoz kelib o'zlari ekan gullarning «tovlanib ochilganini», ular ustidan esa «xoldor qanotli kapalaklar» uchib yurganini ko'rgan Lola va o'rtoqlari, shubhasiz, xursand bo'lishadi. Go'zallikdan quvonishadi. Bolalar qalbida mehnatga, tabiatga bo'lgan muhabbat estetik tuyg'uning tarkib topishiga ta'sir qiladi.

Xullas, bu hikoyalardagi kattalar bolalar qalbiga yo'l topishga, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir etishga intiladilar va shu yo'l bilan bolalarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda, mehnatga, Vatanga, tabiatga muhabbat, jamoaga hurmat kabi ijobiy odatlarning tarkib topishida muhim vazifani bajaradilar.

Safar Barnoyevning «Rasmi kitobcha» hikoyasi syujetiga harbiy vatanparvarlik g'oyasi singdirilgan. Bu g'oyani bola qalbiga singdirishda ham yozuvchi suhbat usulidan foydalangan. Muallif boladagi soddadillik (qo'lga kitob tushishi bilan «endi men o'quvchi bo'ldim!» deb maqtanishi)ni va ota tabiatidagi samimiylik, o'g'lga bo'lgan mehr-muhabbatni yorqin ko'rsatadi.

Adib bola obrazini yaratishda unga xos ruhiyatga asoslanishga harakat qiladi. Adib bolalar qalbida dushmanga nafrat uyg'otishda qahramonni notanish bo'lgan muhitga yoki voqea

ichiga olib kirmaydi. U bunga bevosita muloqotda bo'lgan, yaxshi odam deb biladigan o'rtog'i Turg'unning dadasining «qo'li singan»ligini ko'rsatish va sababini tushuntirish orqali erishadi.

Hikoyadagi katta odam — Dilshodning dadasi obrazi mahorat bilan yaratilgan. U o'g'lini dahshatga, qo'rquvga solmasdan qisqagina qilib fashistlarning yomon ishlari haqida gapirib beradi. O'g'lining qalbida dushmanga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otadi. Suhbat davomida u yana o'g'lini hayotga ishonch ko'zi bilan qarashga undaydi. U o'g'lining xavotirlanib: «Endi odamning qo'lini sindirmaydimi?» degan savoliga qat'iyat bilan javob beradi. —«Agar sindiraman desa, o'zi sog' qolmaydi!— Dilshod suyunib ketdi, kitobni yana varaqlay boshladi».

Hikoyada tinglovchi — bola qalbida dushmanga nafrat, vataniga, xalqiga muhabbat tuyg'usini, kelajakka umid, ishonch bilan qarashni o'rgatishda muallif yaratgan katta odam obrazi muhim vazifani bajargan.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, adiblarimiz harbiy vatanparvarlik mavzuida maktab bolalari uchun nihoyatda kam asar yaratganlar. Borlari ham badiiy jihatdan yuqori saviyada emas.

Safar Barnoyevning «Qahramonning akasi qahramon» nomli hikoyasida ikkita katta odam — Qahramonning dadasi va akasi ishtirok etadi. Lekin, afsuski, har ikki obraz ham muvaffaqiyatli chiqmagan. Ma'lumki, hikoyada ishtirok etuvchi har bir personaj aniq vazifani bajarishi kerak. Bu hikoyada ayniqsa, ota obrazida ana shu vazifa yo'q darajada. Shunisi ajablanarliki, muallif bolaning o'ta qiziquvchanligini ko'rsatish uchungina katta odamni asariga olib kiradi. Lekin qo'yilgan savollarning birortasiga ota qoniqarli javob berolmaydi. Masalan, hikoya matnidagi quyidagi birinchi savol-javobga e'tibor beraylik:

— Armiya nima? Unda nima qiladi?

— Chegarani qo'riqlaydi.

Qahramon yana tushunmaydi, kichkina qora ko'zlarini pirlpiratadi².

Darhaqiqat, javob tushunarsiz. Nahotki, armiya bu faqat chegarani qo'riqlash bo'lsa? Katta yoshdagi kitobxon o'qisa, Qahramonning akasi chegarada xizmat qilayotganini payqashi mumkindir, albatta. Ammo bolalar-chi?

Bolalarlar adabiyotining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u turmush tajribasi kam, hayotga, voqealar mohiyatiga qiziqish bilan qarovchi, bilib olishga intiluvchi bola uchun yoziladi. Shu sababli muallif qisqalikka intilayotganida ham uning zaminida tushunarli va aniq javob bo'lmog'i lozim.

Hikoyadagi ota-bolaning ikkinchi suhbatini ham xuddi ilgari kabi mujmal tugaydi. Bu safar Qahramon akasining orden taqib tushgan suratini ko'rib, otasiga savol beradi va akasining «qahramon bo'lgani uchun» orden olganligini bilib hayron bo'ladi. Hikoya matnidan

ma'lum bo'ladiki, bola Qahramon — bu faqat odamning ismi deb o'ylaydi va uning lug'aviy ma'nosini tushunmaydi. Shuning uchun otasiga savol bera-di:—«Nega unaqa, ada?».

Adasi tushuntira ketdi. Tushuntirolmagach, «keyin bilasan»— deb qutuldi.

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi hikoyani davom ettirish maqsadida otaning bu so'z ma'nosini tushuntirib be-yshiga yo'l qo'ymagan. Natijada hikoyadagi katta odamga yuklatilgan vazifa noma'lum bo'lib qolgan.

Hikoya davom ettiriladi. Undagi ikkinchi katta odam — akasi armiyadan qaytib keladi, bolaning unga bergan birinchi savoli shunday bo'ladi:

— Aka, aka, otingiz o'zgardimi?

— Nega! Kim aytdi,— dedi akasi hayrol bo'lib.

— Adam aytdila-ku, akang qahramon bo'ldi deb.

«Hamma kulib yubordi...»

Bolaning savoli bu safar ham «ochiq» qoladi. Sababi, muallifning maqsadi — «qahramon»likni aniq hayotiy voqea orqali ko'rsatish. Shuning uchun hikoya syujetiga «bog'— ko'l» voqeasi kiritiladi. Aka-uka «qayiqda suzib», «qirg'oqqa yaqinlashayotganda shamol turib, Qahramonning do'ppisi suvga uchib tushadi», uni olaman deb o'zi ham suvga tushib ketadi. Aka «o'ylamay-netmay» suvga shartta «kalla» tashlaydi va ukasini qutqaradi. Shu payt yugurib kelgan milistioner:

— Qoyil o'g'lon! Mard ekansan, qahramon ekansan!—deydi.

Qahramon endi hushiga kelgan edi. Qulog'iga shu gap kirib akasiga dedi:

— Aka, bu amakim mening otimni qayoqdan biladi-a?».

Bolaning shu savoli bilan hikoya tugaydi. Hikoya kompozitsiyasining nihoyatda cho'ziqligi, afsuski, bolaga «qahramon» so'zining ma'nosini to'la emas, hatto qisman tushunib olishiga ham imkon bermaydi.

Darhaqiqat, hikoyada akaning qilgan ishini qahramonlik deb baholash mumkinmi? Agar 4-5 sinf o'quvchisi cho'kayotgan bolani ko'rib, uni qutqarish uchun darhol harakat qilsa, bu harakatni qahramonlikka yo'yish mumkin, ammo harbiy xizmatdan qaytgan yigit uchun bu qahramonlik emas, balki oddiy insoniy burch hisoblanadi.

Hikoyada ishtirok etgan katta odam obrazlari ustida jiddiy ishlanmaganligi tufayli u g'oyaviy-badiiy jihatdan bo'sh, mazmunan sayoz bayonchilikdan iborat bo'lib qolgan.

Safar Barnoyevning «Yong'oq» hikoyasidagi katta odam — Tal'atning onasi «Danak»dan farqli ravishda, qandaydir yo'l bilan o'g'lining bekitiqcha qilgan ishini ochishga harakat qilmaydi. Balki syujet yo'nalishining o'ziyoq boladagi ruhiy holatni etiltiradi va u o'z sirini fosh qiladi. Muallif buning uchun bola tabiatidagi o'ziga xos xususiyatni aniq ko'rsata olgan. YOKI «Mayiz»dagi ona ham o'g'lining qilgan ishini fosh qilish uchun maxsus biron narsa

demaydi, balki bola o'z tabiatidan kelib chiqib, onasiga sandiqni ochishning oson yo'lini ayta turib, sirini ochadi.

Demak, har ikkala hikoyadagi katta odam obrazi bolaning bekitiqcha qilgan ishi fosh bo'lishida yordamchi personaj sifatida qatnashishmoqda. Chunki har ikkala ona o'g'lining qilgan ishidan bexabar. Masalan, «Yong'oq» hikoyasidagi Muharram opa bilan o'g'li o'rtasida shunday savol-javob bo'ladi:

— Islomning-chi, ovozi chiqmayapti.

— Nega unaqa, oyi?

— Kecha oyisining bir tarelka yong'og'ini bitta ham qo'ymay bekitib egan ekan,— dedi onasi.

Hikoya syujetidan ma'lumki, ona o'g'lining yong'oqni yaxshi ko'rishini, gohida ruxsatsiz olib eyishini biladi. Ammo u o'g'lining hozirgi savoliga javob berayotganida «tarelkadagi yong'oqni o'g'lim edimikan», degan ma'noni nazarda tutmayapti, balki «ko'p yong'oq esa, shunaqa bo'ladi», deb o'g'lini ogohlantirayapti. Lekin onaning gaplari o'g'liga boshqacha ta'sir qiladi. Tal'atning rangi dokadek bo'zarib, «shoshib tomog'ini ushlab» ko'radi va onasiga yana savol beradi:

— Oyi, mening tomog'im bo'g'ilmaydimi?— Tal'at ko'zlarini mo'ltiratyb onasiga tikdi.

— Nega bo'g'iladi, o'g'lim?— taajjublandi Muharram opa.

— Boya tokchadagi yong'oqni sizdan bekitib egan edim,— dedi Tal'at.— Tarelkada bitta qolgandi.

Muallif boladagi ruhiy holatni juda to'g'ri ko'rsata olgan. Bola ko'chadan (o'rtog'ini kasalxonaga olib ketishganidan) juda hayajonlanib uyga kiradi va uyda onasining gaplaridan keyin hayajoni xavfsirashga aylanadi. Axir u ham «bekitib yong'oq egan» ekan. Shuning uchun uning ruhi tushib ketadi, u onasiga ko'zlarini «mo'ltiratib» qaraydi. Muallif bola tabiatidagi yana bir xususiyatni aniq ko'rsata olgan. Bu bolalarning katta odam gapini fikran tahlil qilib ko'rmay, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishidir. Keltirilgan parchadagi bolaning gaplaridan bilynib turibdi-ki, u onasining gapidan «yong'oqni ko'p eganda odamning tomog'i bo'g'ilib, ovozi chiqmay qolishi mumkin ekan»,— degan xulosaga kelmayapti, balki, «bir tarelka yong'oqni bitta ham qo'ymay bekitib esa, tomog'i bo'g'ilishi mumkin ekan»,— degan xulosaga kelyapti. Hikoya qahramoni Tal'at tarelkada bitta yong'oq qoldirgan ekan. Shuning uchun ham u umid bilan onasidan «tarelkada bitta (yong'oq) qolgandi», endi «tomog'im bo'g'ilmay-dimi?» deb so'rayapti. Bola ruhiyatiga xos ana shunday sifatlarning hikoyaga kiritilishi uning hayotiyligini oshirgan. Bekitiqcha qilingan ishning oqibatini tinglovchi ko'z o'ngida yorqin namoyon qilgan.

Shunisi muhimki, hikoyada katta odam yordamchi personaj sifatida qatnashsada, g'oyani ochishda, bolalar tabiatini ko'rsatishda etakchi vazifani bajargan.

Safar Barnoyevning «Xo'rozqand» hikoyasidagi katta odam masalani hal etishda asosiy personaj sifatida qatnashadi. Hikoya qahramoni Jur'at bilmadan zoldiri bilan «tokchada turgan gulli choynak»ni «chil-chil» qilib sindirib yuboradi. Oyisi «choynakni kim sindirdi?» deb so'raganda Jur'at dovdirab, qo'rqa-pisa, duduqlanib, «choy-choynakni, oyi, haligi, o'zi sindi»,— deb javob beradi».

Onasi Jur'atning yolg'on so'zlayotganligini sezadi. Albatta, «yaxshilab gaplashib qo'yilsa», Jur'at aybini tan olib rostini aytadi. Lekin shunday qilinsa,)beti qotib, yolg'onchilik xunuk odat ekanligini anglamay qoladi. Shuning uchun Jur'atning oyisi o'zini o'g'lining yolg'on gaplariga ishonganday qilib ko'rsatadi. «O'zi singan bo'lsa, nima ham derdim. Lekin juda qiziq bo'libdi-da! Choynak ham o'zidan-o'zi sinar ekanmi?

— Ha, o'zidan-o'zi sindi,— dedi Jur'at tetiklanib».

Muallif bola tabiatini, uning ruhiyatidagi o'zgarishni to'g'ri aks ettira olgan. Chunki o'z yolg'oniga onasini «ishontirgan» bola tetiklanib, ruhlanib ketadi. Onasi chiqib ketgach, «suyunib, chapak chalib yuboradi». Shubhasizki, u yolg'on gapni yaxshi ko'rib qoldi, chunki shu yolg'on tufayli onasidan dakki eshitmadi.

«Xo'rozqand» hikoyasida ona Jur'atning yolg'on gapini fosh qilish uchun aniq voqeadan foydalanadi. Buning uchun u bolalarga bozordan olib kelgan xo'rozqandini beradi. «Alim bilan Halimdagi xo'rozqandning tojlari butun. Jur'atdagining esa yarim tojisi yo'q edi. Bu kichkinagina narsaga bola ahamiyat beradi va onasiga ginaxonlik qilib, shunday deydi:

— Oyi, oyi, nega menga boshi singan xo'rozqand olib keldingiz?— dedi Jur'at.

— Olganimda butun edi, o'zidan-o'zi sinib qolibdi-da.

— O'zidan-o'zi ham sinadimi?

— Axir, tokchada turgan choynak o'zidan-o'zi singandan keyin bu ham sinadi-da».

Onasi bilan bo'lib o'tgan ana shu savol-javob paytida Jur'at bir zungina aldangan odam holatini tasavvur qiladi. Aldash va aldanishni his qiladi. Shundagina u «choynak o'zidan-o'zi sindi» degan yolg'on gapiga onamni ishontirdim deb o'ylab, xato qilganini va ayni shu yolg'on gapi bilan onasining oldida sharmanda bo'lganini tushunadi. Shuning uchun hikoyaning xulosa qismida u bo'lgan voqeaning rostini aytadi.

Safar Barnoyevning «Shaftoli» hikoyasidagi Qobil, «Uchar yong'oqlar» hikoyasidagi Alisher ham o'zlari yoqtirgan narsani eb qo'yishadi va tan olishga kelganda yolg'on so'zlashadi. Bu hikoyalardagi katta odamlarning vazifasi ham xuddi yuqoridagi hikoyalardagi kabi bolaning yolg'onini fosh etishdir. Ammo bu hikoyalardagi katta odam obrazi vazifasi juda tor hal etilgan.

«Shaftoli» hikoyasida shunday yoziladi: «Shaftolini so'ramay olganing, mana shunaqa yolg'on gapirganing uchun shaftolining tuklari seni talayapti,— dedi Zaynab opa.— Endi nima qilasan?

— Shaftolidan olgandim, oyijon, endi hech yolg'on gapirmayman, oyijon ayting, tuklari meni talamasin,— dedi qo'rqib ketgan Qobil» qorni shishib ketadi,— dedi oyisi qovog'ini solib.

«Uchar yong'oqlar» hikoyasida yoziladi:

— Kim yong'oq eb, emadim deb yolg'on gapirsa, ertalabgacha

— Keyin nima bo'ladi?— dedi Alisher qo'rqib ketib.

— Nima bo'lardi, yorilib ham ketishi mumkin,— dedi oyisi.

— Axir, axir, yong'oqni bir o'zim emadim-ku, Farhod bilan Bahromlar ham eyishdi-ku,— dedi Alisher qo'llari bilan qornini ushlab».

Keltirilgan parchalardan ko'rinib turibdiki, mualliflar katta odam obrazi vazifasini chuqur dalillamay turib, shoshma-shosharlik bilan masalani yuzaki hal qilishadi. Natijada hikoyalardagi bolalar yolg'onini fosh etish maqsadida katta odam tomonidan aytilayotgan gaplarning o'zi yolg'ondan nariga o'tmagan va bolalar yolg'on so'zlarning yomonligi mohiyatiga tushunmay qolganlar.

Safar Barnoyevning «Qizil mashina» hikoyasida ham bolaning nojo'ya xatti-harakati tanqid qilinadi. Ammo bu hikoyadagi Jo'raning qilgan ishi yuqorida tahlil etilgan hikoyalardagi bolalarlarning qilgan ishlaridan keskin farq qiladi. U hikoyalardagi bolalar, asosan, o'z uylaridagi narsalarni ruxsatsiz o'zlashtirishgan bo'lishsa, bu hikoyadagi Jo'ra bironing narsasini o'zlashtirishga harakat qiladi. Mohiyat e'tibori bilan hikoyalardan «Ruxsatsiz hech narsaga tegma!» degan bir xil ma'no kelib chiqsa-da, qilingan ish ikki xil. Yuqoridagi hikoyalarda yolg'onchilik, bu hikoyada esa — o'g'rilik birinchi o'rinda ko'rsatiladi.

Albatta, bolalar qilgan ishining o'g'rilikday jirkanch ish ekanligini tushunib etmaydi. Lekin shunga qaramay, bironing narsasini ruxsatsiz olish yomon ekanligini u his qiladi. Muallif hikoyada qahramondagi ana shu holatlarni to'g'ri ko'rsatadi. U o'rtog'ining mashinasini uyiga olib ketib, uni yashirish harakatiga tushadi. Lekin yashirishga ulgurolmay shkaf ichiga berkinib olganda, o'zini xuddi «issig'i chiqib ketgandek» his qiladi, «oyoq-qo'llari esa sovuq qotgan kishidek dir-dir titraydi». Bola ruhiyatida ro'y bergan holat tasviridan ko'rinib turibdiki, u qattiq hayajonlanyapti. Shu daqiqada uning qalbida so'zsiz ichki kurash boryapti. Bola kilib qo'ygan ishidan, o'zi ham dahshatga tushmoqda. Demak, asarda ishtirok etayotgan katta odam — ona zimmasiga juda mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. U o'g'lini «o'g'rilik»dan qaytarish bilan birga, ongiga bu kabi ishlarga nafrat bilan qarashni ham singdirishi lozim. Ona o'g'lining (qilgan ishini qoralaydi, uni koyiydi. Lekin o'g'lining qalbiga yo'l topishga, u bilan ozgina bo'lsa ham dildan

samimiy suhbatlashishga harakat qilmaydi. Muallif onadagi o'qituvchilik mas'uliyatini nihoyatda jo'n tasvirleydi. Masalan, quyidagiy savol-javobga e'tibor beraylik:

— Shokirning mashinasini so'ramay olgan bolani to'g'ri deb bo'ladimi? Endi seni hamma o'rtoqlaring o'g'ri deb chaqiradi.

— Meni-ya?

— Ha, seni!

— Endi nima qilaman?— Jo'raning yumaloq yuzlari oqarib ketdi.

— Darrov Shokirning mashinasini olib borib ber, uzr so'ra.

— Shunda o'g'ri bo'lmaymanmi?

— Ha, mashinasini olib borib bersang o'g'ri bo'lmaysan.

Savol-javobdan ko'rinadiki, bola nihoyatda murakkab vaziyatga tushib qolgan. Ana shu vaziyatda uning tabiatiga xos tomonlar ko'zga tashlanyapti. Bu, avvalo, bolalar o'rtoqlarining o'ziga bo'lgan munosabatini qadrlashida, ularning fikr-mulohazalari bilan hisoblashishida ko'rinadi. Muallif boladagi shu xususiyatlarni ko'rsatadi-yu, ammo masala echimida ularni boshqacha talqin qiladi. Natijada onaning gaplaridan so'ng, bola «o'g'ri» bo'lishdan ko'ra, o'rtoqlari bu ishdan xabar topib, uni «o'g'ri» deyishlaridan ko'proq dahshatga tushadi.

Xullas, asar syujetining echimida etakchi rol o'ynovchi katta odam vazifasi etarli darajada ko'rsatilganligi tufayli hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati ko'tarilgan.

Xalq maqollari va naqlaridan ijodiy foydalangan holda kichkintoylarning qalb torini chertadigan, fantaziyasini qanoatlantiradigan badiiylikka erishadi. Adibning “Sog'inch”, “Oq laylaklar”, “Mukofot” to'plamlariga kirgan bir qator asarlari ana shunday ijodiy namunalari sarasiga kiradi.

Xullas, adib qaysi yo'l bo'lmasin yoshlarni faqat yaxshilik qilishiga, ezgu ishlarni bajarishga undaydi. Uning asarlari bolalar xotirasini o'stirishga va mustahkamlashga, did-farosatini takomillashtirishga, zehni o'tkirlashga, teran fikrlashga, eng muhimi ularga olam-olam estetik zavq beradigan tarbiyaviy vositalar sirasiga kiradi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki asarni o'qigan bola, avvalo, chidamlilikka, sabr-qanoatga o'rganadi. Keyin asar mazmunidan xulosa chiqaradi. Demakki, badiiy ijod-asarlar vositasida mustaqil fikrlashga o'rganadi.

Bir so'z bilan aytganda, Safar Barnoyev bolalar adabiyotining ulkan xazinasini boyitishga o'zining munosib hissasini qo'shgan yetuk so'z san'atkorlaridan biri sanaladi. Shuningdek, uning asarlari bolalarning estetik tarbiyasida muhim o'rin tutishi bilan birga tarjimai holining o'zi ham yosh avlod tarbiyasi uchun ibrat namunasidir.

Safar Barnoyev zamon bilan hamnafas ijodkor. Binobarin, adib asarlardagi zamonaviylik va milliylik asar mag‘ziga singdirilgan didaktikada, davrimiz ahloqiy talablarining badiiy ifoda etilishida ko‘rinadi. San‘at va adabiyot, jumladan, bolalar adabiyoti oldidagi vazifa – davrning yuksak ahloqiy talablarini bola qalbiga, ongiga, shuuriga singdira bilishdan iboratdir. Mana shu sifatlarning barchasi Safar Barnoyev ijodida mujassam.

Safar Barnoyev bevosia bolalarga bag‘ishlangan asrlarida bu masalalarga jiddiy e‘tibor beradi va ularni yuksak, nozik did bilan hal qiladi; yosh kitobxonda ona Vatanga, do‘stga, mehnatga, ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otib, uni jamiyatda o‘z o‘rnini topib olishga chorlaydi. Shuning uchun ham adib asarlari o‘zbek bolalari tarbiyasining asosiy vositasi sanaladi. Binobarin, adib ijodiy merosining badiiy, ta‘limiy va ahamiyati ham ana shu jihatlar bilan belgilnadi.

XULOSALAR

Istiqlol tufayli xalqimiz o‘z taqdirini o‘z hayoti va kelajagini o‘z qo‘liga oldi. Xalqning siyosiy ongi va dunyoqarashida buyuk sifat o‘zgarishlari yuz berdi. O‘zbekistonda yangi davlat tuzimi poydevori qad ko‘tardi. Demokratik asosda huquqiy davlat tashkil topa bordi. Mustaqillikka erishgach, o‘zbek bolalar adabiyoti ham o‘z tarixiy taraqqiyotining yangi davriga ko‘tarildi. Ijtimoiy hayotda bo‘lgani kabi bolalar adabiyotida ham erkin fikrlilik va tanqidiy ruh

kuchaydi. Bu davrda bolalar ijodkorlari ona Vatan va millat tarixini, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni va buyuk ajdodlari hayotini tasvirlashda sobiq sho‘rolar davridagi biryoqlamalilikdan butunlay qutuldilar. Zero, badiiy so‘z san’atining tarkibiy qismlaridan biri – bolalar adabiyoti o‘ziga xos xususiyati, badiiy qonuniyatlarga ega bo‘lib, uning asosiy maqsadi, ijodkorlarining ijtimoiy burchi xalq farzandlarini juda yoshligidan boshlab odamiylik, halollik, haqiqatgo‘ylik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, go‘zallik ruhida tarbiyalash, chin Inson bo‘lib voyaga yetishuvlariga xizmat qilishdan iboratdir. Ana shunday ezgulik yo‘lidi kamarbastalik qilib ijod etgan benazir qalam sohibi bolalar adibi Safar Barnoyevdir.

Tadqiqot ishimizda adibning ijodiy merosini o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbek bolalar she‘riyati va nasrining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan biri sanalgan adib Safar Barnoyev ilk asarlari bilan ustoz-adiblar – Quddus Mahammadiy, Po‘lat Mo‘min, Hakim Nazirlar nazariga tushgan is’tedodli ijodkorlar sirasiga kiradi;

2. Bolalar nasri va nazmida barakali ijod etgan adib Safar Barnoyev asarlarining mavzu ko‘lami keng va rang-barangdir. Turli yoshdagi kitobxonlar Safar Barnoyev asarlarini sevib o‘qiydilar, ulardan estetik zavq oladilar. Adib o‘z asarlarida bolalarni qiziqtirgan, ularning bilgisi, eshitgisi kelgan narsa va voqealarni ixcham, o‘ynoqi vazn va qofiyalari pishiq ishlangan misralarda ifodalaydi;

3. Safar Barnoyev ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u bolalar tilini yaxshi o‘zlashtirgan, o‘rgangan. Shuning uchun ham uning she‘rlari go‘zal, hikoyalari yoqimli, xalqona, sodda va ravon tilda yozilgan;

4. Safar Barnoyev asarlarida odob-ahloqi, xarakter-xususiyatlari turfa xil bolalarning obrazlari turli-tuman badiiy tasvir va ifoda vositalarda, badiiy janr imkoniyatlari doirasida yuksak mahorat bilan yaratilgan;

5. Safar Barnoyev asarlarining bosh qahramonlari bolalar, yoshlar. Bosh mavzui esa urush qoldirgan asoratlarni ko‘rsatish orqali hozirgi yosh avlodni istiqloq ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Uning “Ota o‘g‘li” , “Qirq yettinchi yil” hikoyalar turkumi xuddi shu maqsad, shu g‘oyani ilgari suradi;

6. Safar Barnoyev o‘zining “Tinchlikni ulug‘laymiz” nomli kitobi uchun Respublika yozuvchilarining eng oliy sovrini “G‘afur G‘ulom” mukofotiga sazovor bo‘lgan;

7. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki bolalar uchun yozilgan badiiy asarlarga bo‘lgan asosiy talablardan biri – ularning tarbiyaviy ahamiyati. Safar Barnoyev qalamiga mansub asarlarning aksariyati ularda turli yoshdagi bolalar va kattalar hayotidan tanlangan real va noreal-fantastik voqealar aqliy, ahloqiy, jismoniy, estetik, mehnat va tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liqligi uchun badiiy aks ettirilganligi aniq bilinib turadi. Bunga ta’limning bir vositasi, tarbiyaning bir usulini qo‘llash bilan erishib bo‘lmaydi. Ijtimoiy fanlar

bo'yicha yirik mutaxxisslarning fikricha, buning uchun ta'limning hamma vositalari tarbiyaning barcha tarkibiy qismlarining birligi ishga solinsagina yaxshi natijalarga erishish mumkin. Safar Barnoyev asarlarining g'oyaviy mazmuni ta'lim-tarbiyaning birligi konsepsiyasiga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir;

8. Safar Barnoyev ijodiyotining tahsinga loyiq jihatlaridan yana biri ikchintoylarga qisqa va lo'nda yozish, qissadan hissa chiqarish iqtidoriga egaligidir. Uning yumorga boy, xazil mutoyiba bilan yo'g'rilgan talay asarlari allaqachon o'z o'quvchilari mehrini qozonib ulgurgan. Jumladan, adibning "Kichkina Qori Ishkanba", yoki "Kichkina Xo'ja Nasriddin" nomli o'zida turkum hikoyalarini jamlagan qissalari fikrimizning yorqin dalilidir. Adib bu asarlari vositasida o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini turli xil salbiy illatlar oqibatidan ogoh qilib, ularni ezgulik, go'zallik, kamolot va yetuklikka undaydi. Adib bu kabi asarlari bilan o'zbek bollar adabiyotidagi hajviyot maktabini yangi saboqlar bilan boyitdi, uni yangi pog'onaga ko'tardi.

9. Safar Barnoyev ijodiga mansub asarlar tabiatidan uning faqat iste'dodini, mahoratinigina emas balki shaxsiyatini, ma'naviyatini ham bilish mumkin. Zero, ulkan iste'dod sohibi Safar Barnoyevning tarjimai holiga doir chizgilar bilan tanish bo'lganlar uning ma'naviyati yuksak chin Inson ekanligidan voqif bo'ladilar;

10. O'zbek bolalar adabiyotining jonkuyari sifatida tanilgan Safar Barnoyev o'zbek bolalar publitsistikasida ham samarali faoliyat ko'rsatdi. Dastlab, "Yosh gvardiya" (Hozirgi "Kamalak") nashriyotida, umrining so'nggi kunlarigacha esa "Gulxan" jurnalining bosh muharriri sifatida mehnat qildi. Jurnalning zamon talablari darajasida rivojlanishiga ulkan hisasini qo'shdi, mavqeini oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, biz bu ulkan ijodkor asarlariga pedagogik talablar doirasida, bolalar adabiyoti xususiyatlari negizida, badiiyat talablari asosida ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarning ask etishi va ularning amaliy ahamiyati xususidagi ayrim fikr-mulohazalarimizni bayon etishga harakat qildik.

E'tirof etish joizki, Safar Barnoyev qalamiga mansub asarlar majmuasi go'zal qalb va yorqin iste'dodli shaxs tomonidan bunyod etilgan badiiy tarbiya maktabidir. Zero, bu maktabdan xalqimiz farzandlari hidoyat yo'lidan yurish va komil inson bo'lish saboqarini oladilar.

ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’aviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat. 2008. 176 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. (Oliy majlisning 7–chaqiriq IX sessiyasida so‘zlangan nutqi) – T.: «Sharq». 1997.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. –T.: “O‘zbekiston”, 1992.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. //«Muloqot». 1998. № 5.
5. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili. Boshlang‘ich ta’lim. «Ta’lim taraqqiyoti axborotnomasi». 1, 7 – Maxsus sonlar. – T.: «Sharq». 1999.
6. Barnoyev S. Tog‘lardaman. –T.: “Yosh gvardiya”. 1970
7. Barnoyev S. Birinchi tabassum. –T.: “Yosh gvardiya”. 1972
8. Barnoyev S. Dadamning qo‘llari. –T.: “Yosh gvardiya”. 1974
9. Barnoyev S. Sog‘inch. –T.: “Yosh gvardiya”. 1975
10. Barnoyev S. Yulduzxon va Bahorjon. –T.: “Yosh gvardiya”. 1977
11. Barnoyev S. Soldat qaytgan kun. –T.: “Yosh gvardiya”. 1979
12. Barnoyev S. Oq laylaklar. –T.: “Yosh gvardiya”. 1982
13. Barnoyev S. Egizaklar. –T.: “Yosh gvardiya”. 1983
14. Barnoyev S. Mukofot. –T.: “Yosh gvardiya”. 1985
15. Barnoyev S. Tinchlikni ulug‘laymiz. –T.: “Yosh gvardiya”. 1986
16. Barnoyev S. Dadam haqida qo‘shiq. –T.: “Yosh gvardiya”. 1989
17. Barnoyev S. Karimjon-karmon. –T.: “Yosh gvardiya”. 1988
18. Barnoyev S. Beliye aisti. –T.: “Yosh gvardiya”. 1990
19. Barnoyev S. Kichkina Qori Ishkanba. –T.: “Yozuvchi”. 1996
20. Barnoyev S. Kichkina Xo‘ja Nasriddin. –T.: “Yozuvchi”. 1997
21. Jumaboev M Bolalar adabiyoti.-T.: “O‘qituvchi”,1994.
22. Yo‘ldoshev Q. “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari”.-T.: “O‘qituvchi”, 1996.
23. Matjon Safo. Kitob o‘qishni bilasizmi?-T.: “O‘qituvchi”1993.
24. Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma).-T.: “O‘qituvchi”, 1996.
25. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari (XX asr o‘zbek adabiyoti) –T.: “Yozuvchi”. 2000
26. Muhamadyorova P. Sharlar uchdi”. -T.: “O‘qituvchi”1991.

27.Shermuhammedov P. Davr qahromoni taqdirida. -T.: “O’qituvchi”1993.